

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING ” KAFEDRASI

SALAXITDINOV ABBOSXON AMANXANOVICH

**INNOVATSION BOSHQARUVDA AXBOROT VA
KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNI O‘RNI**

5230200 - “Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliyaviy menejment» fakulteti
dekani iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Astanakulov Olim Tashtemirovich

«Menejment va marketing» kafedraasi
mudiri iqtisod fanlari nomzodi
Asatullaev Xurshid Sunatullaevich

«_____» _____ 2016 y.

«_____» _____ 2016 y.

Ilmiy rahbar: _____ prof. F.Nazarova

“ _____ ” _____ 2016 y.

Toshkent - 2016

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. AXBOROT - KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYA-LARNING INNOVATSION BOSHQARUVDA ILMIY ASOSLANGANLIGI.....	6
1.1. Boshqaruvda axborot texnologiyalarining nazariy asoslari.....	6
1.2. Kommunikatsiyalarning iqtisodiy mazmuni hamda boshqaruvdagi oʻrni.....	12
1.3. Innovatsion boshqarish jarayonlarini amalga oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning oʻziga xos xususiyatlari.....	16
Birinchi bob boʻyicha xulosa	
II BOB. IPOTEKA BANK” ATIB TOSHKENT SHAXAR FILIALI BOSHQARUV TIZIMINI VA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING HOLATINING TAHLILI.....	2
2.1. “Ipoteka bank” ATIB Toshkent shahar filiali faoliyati va boshqaruv tizimining tahlili.....	21
2.2. “Ipoteka bank” ATIB Toshkent shahar filialida innovatsion axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish holatining tahlili.....	30
Ikkinchi bob boʻyicha xulosa	
III BOB. INNOVATSION BOSHQARUVDA AXBOROT – KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH YOʻLLARI.....	38
3.1 Innovatsion boshqaruv jarayonlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning chet el tajribasi.....	38
3.2 Innovatsion boshqaruv jarayonida zamonaviy axborot - kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning davlat tomonidan qoʻllab – quvvatlanishi.....	41
3.3 Axborot-kommunikatsiya tizimini innovatsion boshqarishni takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlari.....	49
Uchinchi bob boʻyicha xulosa	
XULOSA	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.....	57

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari kompaniyaning strategik rivojlanishi, ichki ishlab chiqarish jarayonlari, kompaniya tarkibi, kadrlar siyosati, bozordagi faoliyatiga to'g'ri dan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Natijada, tadbirkorlik muhitida zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanayotgan kompaniya bozordagi o'rni, mavqei, strategik rivojlanishi yo'nalishlarida raqobatchilaridan ustun darajada faoliyat olib borishi va pirovard natijada muvaffaqiyatga erishi mumkinligi ko'plab misollar bilan o'z tasdig'ini topayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek," Davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli 2015 yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik subyekti Internet tarmog'i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olingan. Ular 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. 2013-2014 yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga 102 mingdan ortiq xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2015 yilda bu ko'rsatkich 420 mingdan oshdi."¹

Boshqaruv jarayonlari o'z mohiyatiga ko'ra to'g'ri va oqilona qaror qabul qilishni ko'zda tutadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari esa boshqaruv jarayonlarida qaror qabul qilish uchun mavjud barcha axborotlarni maksimal darajada jamlash, qayta ishlash, undan to'g'ri xulosa chiqarish uchun katta qulayliklar yaratib beradi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlaridagi munosabatlarni jadallashtirib kompaniyaning umumiy funktsional harakatlarini optimallashtirib boradi. Shu boisdan ham tanlangan mavzu dolzarb hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi innovatsion boshqaruvda axborot va kommunikatsiya tizimlaridan samarali foydalanish va shu orqali boshqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga

¹ I.A.Karimov. Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2016 yil 17yanvar.

qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- axborot - kommunikatsion texnologiyalarning nazariy asoslarini tadqiq etish;
- innovatsion boshqarish va modernizatsiyalash jarayonlarining iqtisodiy mazmuni hamda o‘zaro bog‘liqligini asoslab berish;
- innovatsion boshqarish va modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- “Ipoteka bank”ATIB Toshkent shahar filiali boshqaruv tizimi va asosiy moliyaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining tahlil qilish;
- “Ipoteka bank”ATIB Toshkent shahar filialida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning holatini tahlil qilish;
- Innovatsion boshqaruv jarayonlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning chet el tajribasini o‘rganish;
- Innovatsion boshqaruv jarayonida zamonaviy axborot - kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlanishini tadqiq etish;
- Innovatsion boshqaruvni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy xulosalar keltirish.

Bitiruv malakaviy ishining obykti sifatida “Ipoteka bank”ATIB Toshkent shahar filiali tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Tijorat banklarining innovatsion boshqaruv tizimidagi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan samarali foydalanish xususiyatlari, bunda yuzaga keluvchi muammolar va ularni hal qilish jarayonlari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, ulardan tadbirkorlik va jumladan, boshqaruv jarayonlarida foydalanish muammolari xorijlik va mamlakatimiz olimlari tomonidan jadal o‘rganib kelinmoqda.

Bitiruv malakaviy ishida kompaniyalar faoliyatini innovatsion boshqarish va

modernizatsiyalash jarayonlarining iqtisodiy mazmuni hamda o‘zaro bog‘liqligini asoslab berilishi uning nazariy ahamiyatga ekanligini, innovatsion boshqaruv jarayonlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning chet el tajribasini o‘rgangan holda, innovatsion boshqaruvni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan xulosalar ishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishining tuzilmasi kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat, umumiy hajmi 59 bet, 8 ta rasm va 3 ta jadvaldan tashkil topgan.


I BOB. AXBOROT - KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING INNOVATSION BOSHQARUVDAGI ILMIY ASOSLANGANLIGI

1.1. Boshqaruvda axborot texnologiyalarining nazariy asoslari

Axborot – bu ma'lumot va xabarlar to'plami bo'lib, mazmunan yangilik unsurlariga ega bo'ladi va boshqaruv vazifalarini hal etish uchun o'ta zarurdir. Ishonchli va zarur axborotlarsiz boshqarishni amalga oshirib bo'lmaydi. Axborotlar boshqaruv negizi hisoblanadi. Boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar axborot vositasida amalga oshiriladi.

Boshqaruvchi organ boshqariluvchi obyektning holati hamda boshqariluvchi obyekt bog'liq bo'lgan tashqi muhit holati haqida axborotlar olib turadi. Bu axborot boshqaruvchi organ tomonidan qabul qilinadi va shu axborot asosida u boshqaruvchi axborot (qaror; buyruq)ni ishlab chiqadi. Shundan keyin, axborot boshqariluvchi obyektga ta'sir o'tkazadigan boshqaruvchi tizimning ijroiya organiga yuboriladi va bajarilishi nazoratga olinadi.

Shunday qilib, boshqaruv tizimida axborotni uzatish, olish, qayta ishlash va berish jarayoni amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishning borishi to'g'risidagi ichki axborot boshqaruvchi tizimga muttasil kelib tushadi.



1-rasm. Boshqaruv tizimidagi axborot aloqalari

Agar kompaniya ichida axborot oqimlarining kelishi va tashqi dunyo bilan aloqalar buzilsa, kompaniyaning yashashi xavf ostida qoladi.

Boshqarishda foydalaniladigan va bajarilishi uchun uzatiladigan axborotlarga quyidaga talablar qo'yiladi:

- ishonchlilik;
- tushunarli, bir ma'nolilik;
- tezkorlik;
- to'liqlik;

- tejamlilik.

Hozirgi davrda rahbar boshqaruv ishlarida tashabbus va omilkorlik ko'rsatishi, tezkorlik bilan ish olib borishi, vaziyat o'zgarishni o'z vaqgida payqab olish, resurslar bilan manevr qila olishi, xar bir konkret sharoitda maqbul qaror qabul qilishi zarur. Buning uchun rahbar ishontirish mazmuni axborot olib turishi lozim. Ortiqcha, befoyda axborot rahbar ishini qiyinlashtiradi, ortiqcha mehnat va vaqt sarflashga olib keladi.

Axborot tushunarli bo'lishi kerak, chalkash, bir-biri bilan taqqoslab bo'lmaydigan ko'rsatkichlar to'g'ri rahbarlik qilishga va o'z vaqtida qaror qabul qilishga putur yetkazadi.

Axborotning o'z vaqtida kelishi va o'z vaqgida bajaruvchilarga yuborilishi, ya'ni tezkorligi ham juda muhimdir. U boshqaruv jarayonining, binobarin, ishlab chiqarishchning uzluksiz borishiga yordam beradi. Shuningdek, dastlabki axborotni boshqarish turli maqsadlar uchun oson o'zgarish, undan boshqaruvning barcha bo'g'inlarida foydalanish mumkinligi, axborotning uzil-kesil ishlanishi, undan qo'shimcha ishlov bermasdan foydalanish ham katta ahamiyatga ega.

Zarur paytda kerakli natija beradigan axborotlar qimmatli hisoblanadi. Kech berilgan axborotlar o'z qimmatini yo'qotadi.

Ishlab chiqarish vaziyatiga to'g'ri baho berish va aniq qaror qabul qilish uchun boshqaruv organi axborot bilan to'liq ta'min etilishi, axborot hajmi maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Axborot etishmasligi yoki haddan tashqari ko'payib ketishi tezkor va to'g'ri boshqarishga xalal beradi. Va, nihoyat, boshqarish apparati xodimlari qanchalik yuqori malakali bo'lsalar, axborot qimmati ham shunchalik yuqori va tartibga solingan bo'ladi. Boshqarish organlari ma'lumotlar qabul qiluvchi texnika vositalari bilan qanchalik mukammal ta'minlangan - bo'lsa, rahbarlarga ortiqcha, befoyda ma'lumotlar shunchalik kam kelib tushadi. Bu esa o'z navbatida axborot oqimidagi tejamkorligni ta'minlaydi.

Boshqarish tizimining muvaffaqiyatli ishlashining zarur sharti faqat to'g'ri aloqagina emas, balki teskari aloqaning ham mavjud bo'lishidir. Teskari aloqa har qanday darajadagi tizimlar harakatini rostlab turish uchun universal mexanizm

hisoblanadi.

Boshqariluvchi tizimdan boshqaruvchi tizimga (bo'ysunuvchidan boshliqqa) kelib tushadigan axborotni, ya'ni berilgan farmoyish va buyruqning natijalari to'g'risidaga axborotni teskari aloqa deb tushunish qabul qilingan .

Boshqaruv tizimi unsurlari ichida murakkab, ko'p tomonlama va xilma-xil aloqalar mavjudligi sharoitida teskari aloqaning ahamiyati ayniqsa ortadi. Boshqaruvchi tizim farmoyish yoki buyruq (topshiriq) bergandan keyin shu farmoyish yoki buyruq qanday bajarilayotganligi to'grisida teskari aloqa yo'li bo'yicha o'z vaqgida axborot bilan ta'minlanib turilmasa, boshqarish jarayoni buziladi va boshqaruv tizimi butunlay izdan chiqadi.

Ishlab chiqarishni va davlat boshqaruvining barcha darajalarida mustahkam teskari aloqa mavjudligi xarakterlidir. Oddiy bir misol. Mamlakatimizning iqqisodiy va sotsial rivojlanishi bo'yicha ipshab chiqiladigan barcha qonunlar, albatta umumxalq muhokamasiga qo'yiladi, ularga mehnatkashlarning mulohaza va istaklari hisobga olinib, qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritiladi. Teskari aloqa – bu eshitganga, o'qiganga yoki ko'rganga nisbatan aks ta'sir yoki ta'sirlanish tayanchi, Bunda mazkur axbarotni olgan shaxs shu axborotga bo'lgan munosabatini, tushunshnligi yoki to'liq tushinmaganligi, qo'llab-quvvatlashi yoki inkor etishini shu axborotni yuborgan shaxsga bildiradi. Bunday aloqa har ikkala tomonning bir-birini qanchalik tushunganini bilish uchun zarur.

Rahbar berilgan toshiriq yoki aytilgan so'z har doim bo'ysunuvchilar tomonidan birdek qabul qilinadi, deb o'ylamasligi kerak. Bunday xato fikrga boruvchi rahbar o'zini real voqelikdan uzoqlashtiradi. Teskari aloqani samarali o'rnatmagan rahbarning boshqaruv faoliyati zaiflashadi va inqirozga yuz tutadi.

Shov-shuv axborot almashuv jarayonida salbiy ta'sir ko'rsatuvchi unsurlardan hisoblanadi. Axborotlarni uzatish nazariyasi tili bilan aytganda shov-shuv – bu goyani buzib talqin qilishdan namoyon bo'ladi. Aytilgan so'zdan tortib, to uni qabul qilgunigacha bo'lgan masofadagi turli to'siqlar, shov-shuvlar axborotni kodlashtirish va dekodlashtirish, shuningdek rahbar bilan bo'ysunuvchi o'rtasidagi aloqa jarayoniga katta ta'sir o'tkazishi mumkin.

Axborotlar turlari²

T.r	Turkumlash belgalari	Guruhlar
1.	Mazmuniga qarab	- iqtisodiy - huquqiy - sotsial - texnikaviy - tashkiliy
2.	Kelish manbai va foydalanish joyiga qarab	- ichki axborot - tashqi axborot
	Kimga mo'ljallanganligiga qarab	- kompaniya uchun - bo'lim uchun - sex uchun - uchastka uchun
4.	Barqarorlik xarak-teriga qarab	- oddiy axborot - shartli-doimiy axborot - o'zgarib turuvchi axborot
5.	Foydalanish uchun tayyorligiga qarab	- dastlabki axborot - oraliq axborot - yakuniy axborot
6.	Davriyligiga qarab	- smenali axborot - sutkali axborot - kvartallik va h.k.axborot
7.	Boshqaruv jarayonidagi vazifasiga qarab	- direktiv axborot - hisobot ko'rinishida axborot - hisobga olish bo'yicha axborot - nazorat qilish bo'yicha axborot
8.	Voqealarning kelib chiqishini aks ettirish vaqtiga qarab	- tarixiy axborot - joriy axborotlar - perspektiv axborotlar
9.	Mo'ljallanganligiga qarab	- bir maqsadli axborotlar - ko'p maqsadli axborotlar, ya'ni ko'p muammolarni yechishga mo'ljallangan axborotlar
10.	Mustahkamlash va saqlash imkoniyatiga qarab	- og'zaki axborotlar - yozma axborotlar - ovozli axborotlar - tasvirli axborotlar va h.k.
11.	Muhimligiga qarab	- o'ta muxim axborot (ko'rsatma, qo'llanma) - muxim bo'lmagan axborotlar va h.k.
12.	To'liqligiga qarab	- to'liq kompleks axborotlar - to'liq bo'lmagan axborotlar
13.	Xarakteriga qarab	- individual axborotlar - funktsional axborotlar - universal axborotlar
14.	Ishonchililigiga qarab	- ishonchli axborotlar - ehtimolli axborotlar

² G'ulomov S. S., Begalov A. Informatika va axborot texnologiyalari". T:Fan, 2010.112 bet


Shu sababli, shov-shuvni ham e'tiborsiz qoldirish mumkin emas.

Hozirga davrda xalq xo'jaligining turli bo'linmalari faoliyatini boshqarish, eng avvalo tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish turli-tuman axborotlarga bog'liq. Axborot-larning xilma-xilligi har bir boshqaruv obyektining faoliyati ko'p tomonlamaligi bilan, boshqaruv sohalari ham turli-tumanligi bilan belgilanadi, Bular esa pirovard natijada ishlab chiqarish jarayonlari miqyosining kattaligi, o'ta murakkabligi va davom etish suratlarining yuqorili bilan bog'liqdir.

Boshqaruv axborotlari o'ta turli-tuman bo'lganligi tufayli mazkur boshqarish qarorlarini ishlab chiqish uchun zarur va etarli axborotni tanlab olish ancha qiyin. Barcha axborotlarni o'ziga xos belgilariga qarab tur va guruhlariga ajratish, yani klassifikatsiya qilish yoki tasniflash, bu qiyinchilikni bartaraf etish yoki bir oz engillashtirishga ma'lum darajada yordam beradi.

Turkumlanganda axborot tizimi har tomonlama soddalashadi, shuniigdek, uni to'plash, uzatish va turlarga ajratish osonlashadi buning natijasida rahbar xodimlar axborot bilan to'liqroq ta'min etiladi. Barcha axborotlarni quyidagi belgilar bo'yicha turkumlash mumkin Ishlab chiqarish doimiy rivojlanishda bo'lganligi sababli axborot turlari, soni va ko'lami ham ko'payib boraveradi. Shu bois yuqorida keltirilgan turkumlashni to'liq deb bo'lmaydi. Barcha boshqarish vazifalarini kompleks hal etish uchun axborotlar har bir boshqarish obyektining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib aniq turkumlanadi.

Axborot tizimlari ikki xil bo'lishi mumkin. Oddiy tizimda axborot paydo bo'lgan joyidan iste'mol joyiga keltiriladi. Bunday axborot telefon orqali yoki signallar vositasida kelib tushishi mumkin. Bu turdagi axborot tizimi quyi boshqaruv bosqichiga to'g'ri keladi. Bunday axborotga deyarli ishlov berilmaydi.



2- rasm. Axborotlar tizimi³

³ G'ulomov S. S., Begalov A. Informatika va axborot texnologiyalari". T:Fan, 2010.112 bet.

Murakkab axborot tizimining har xil darajada mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish turlari quyidagilardan iborat:

- Axborotlarni to'la o'zlashtirish davri. Bunda axborot oddiy mexanizimlardan foydalanilgan holda butunlay qayta ishlanadi.

- Aralash axborot tizimi. Bunda axborotni mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan qurilmalar yordamida o'zgartirishlarga erishiladi. Bu tizim avtomatlashgan nazoratni ta'minlaydi, ba'zida tashkilotning ta'lim faoliyati ustidan oddiy boshqaruv jarayonini amalga oshiradi.

Axborot-ma'lumot tizimi. Bunda ko'z bilan bajariladigan nazorat uchun ba'zi bir ma'lumotlarni berish bilan cheklanadi.

Kuzatuv axborot tizimi. Bu tizim avtomatlashgan nazorat va boshqaruvni ta'minlaydi. Keyingi ikkala tizim asosan, texnologik jarayonlar to'g'risidagi axborotlarni qayta ishlash uchun qo'llaniladi. Axborotlar tizimi – bu murakkab tizim bo'lib, o'z ichiga turli hujjatlarni, axborot oqimi, aloqa kanallari, texnik vositalar va avtomatik boshqaruv tizimlarini oladi. Butun axborotlar tizimi aniq va doimiy ishlashi lozim. Har bir rahbarning uslubi ko'p jihatdan qaror qabul qilish uchun zarur va etarli axborotni olish va undan foydalanishda uning shaxsiy ishlash uslubi bilan belgilanadi.

Tashkilot faoliyatini boshqarish – bu ijodiy jarayon, o'ziga xos bir san'at. U rahbarning xilma-xil ish usullarida namoyon bo'ladi. Bu usullar esa, rahbarga ushbu sohada omilkor kishilarning fikrini turli kanallar orqali aniqlash va bu ijobiy fikrlardan boshqarish jarayonida foydalanish imkoniyatini beradi. U o'z fikrlarini har bir kishining ongiga yetkazish uchun ham ma'lum xislatlarga ega bo'lishi kerak.

Rahbar suhbatdoshini shunday tinglay bilishi lozimki, suhbat natijasida ish haqida eng ko'p darajada foydali axborot olishi kerak. Bunga esa boshqarishning, ayniqsa o'z qo'li ostidagilarning fikrlariga, so'zlariga, taklif va tanqidlariga e'tibor bilan munosabatda bo'lgandagina erishish mumkin. Bo'ysunuvchi kishi ma'lum ishini bevosita bajaradi va bu ishni boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladi. Shuning uchun rahbar o'z qo'l ostidagilar bilan suhbat qilganida o'zi uchun ayniqsa, qimmatli bo'lgan axborotni olishni mo'ljallashi kerak. Buning uchun ochiq gaplashish sharoitini yaratishi lozim. Begonalar bo'lmasligi lozim, telefon ko'ng'iroqlarini cheklash va hokazolar

talab qilinadi.

Rahbarning yozishni bilishi –bu faqat savodli yoza bilishi emas, balki fikrni qisqa va ravon, davlat tilida badiiy, sodda bayon qilish demakdir. Rahbarlikda bu o‘z qarorini bo‘ysunuvchiga yetkazish uslubidir. Tashkilotni boshqarishda yozish mumkin bo‘lgan hamma narsani yozib qo‘yishi kerak, degan qoida amal qilinadi. Bu, bo‘ysunuvchiga yozilganlarga qarab, o‘z xatti-harakatini aniq tekshirib borish, rahbarga esa qarorning bajarilishini nazorat qilib turish imkoniyatini beradi.

Rahbar o‘ziga axborot tayyorlovchi xodimlar mehnatini tashkil eta bilishi, ulardan omilkorlik bilan foydalanishi kerak. Noto‘g‘ri, past qiymatli axborot tufayli yomon boshqaruv qarori qabul qilishdan ehtiyot bo‘lishi, eng muhimi unga kelayotgan axborotlarni saralab olishi darkor. Funktsional xizmat xodimlari, yordamchilar, referentlar rahbarga eng zarur axborotlarni tekshirib berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1.2. Kommunikatsiyalarning iqtisodiy mazmuni hamda boshqaruvdagi o‘rni


Kommunikatsiya – bu kishilar o‘rtasidagi o‘zaro axborot almashuvidir. Rahbarlar qilayotgan hamma ishlar axborotlarning samarali almashishini talab qiladi. Yaxshi yo‘lga qo‘yilgan kommunikatsiya ish muvaffaqiyatini ta’minlaydi. So‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, 73 foiz amerikalik, 85 foiz yapon, 63 foiz inglizalik rahbarlar, kommunikatsiya, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lidagi bosh to‘siq, deb hisoblaydilar. Yana bir boshqa so‘rovga ko‘ra, 2000 turli kompaniyaning 250 mingta xodimi tashkilotlarda axborot almashish eng qiyin masaladan biri, deb biladilar.

Umuman, har bir rahbar 50 dan 90 foizgacha vaqtini kommunikatsiyaga sarflaydi. Shu sababli, shuni tasdiqlash mumkinki, rahbar faoliyatining samaradorligi , eng avvalo kommunikatsiya samaradorligiga, yani:

- kishilar bilan yakkama-yakka suhbat olib borish qobiliyati;
- telefonda so‘zlashuv kobiliyati;
- rasmiy hujjatlarni tuzish va o‘qiy olish kobiliyati;
- majlislarda qatnashish madaniyati kabilarga bog‘liq.

Tashkilot kommunikatsiyasi – bu o‘ta murakkab, ko‘p bosqichli tizim bo‘lib, o‘z

tarkibiga nafaqat tashkilot ichidagi, shuningdek uning tashqarisidagi axborot almashuvini ham oladi.



3-rasm. Tashkiliy kommunikatsiyaning tasnifiy sxemasi⁴

Tashkilot – bu davlat nazorati va boshqaruvchi ostidagi obyekt bo‘lib, u o‘zidan yuqori tegishli tashkilotlarga turli hisobotlar, ma’lumotlar, axborotlar berib turadi.

Tashqi kommunikatsiya – bu tashkilot bilan tashqi muhit o‘rtasidagi axborot almashuvidir. Tashqaridan keladigan axborotlar, jumladan yuqori boshqaruv organlari, hokimiyat, vazirlik, qo‘mitalar, Vazirlar Mahkamasi, Prezident devoni axborotlari bunga misol bo‘ladi.

Ichki kommunikatsiya tashkilot ichidagi bo‘limlar o‘rtasidagi, tashkilot ichki faoliyatini yurgizish uchun zarur bo‘lgan axborot almashuvi tushuniladi. Bu erda boshqaruv bo‘g‘inlari (vertikal kommunikatsiya) va bo‘limlararo (gorizontal kommunikatsiya) axborot almashuvi amalga oshiriladi.

Rahbar va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya – bu tashkilotda eng ko‘p uchraydigan axborot almashuvidir. Masalan, fakultet dekani yoki kafedra mudirining jamoa va ayrim xodimlar bilan jonli aloqasi juda yuksak baholanadi. Jonli aloqada rahbar faqat o‘z qarorini bildiribgina qolmay, bo‘ysunuvchilarga ta’sir ko‘rsatishi, ularda qarorni yaxshiroq bajarish uchun tashabbus va xohish uyg‘otishi mumkin. Qo‘pollik bilan baqirish, "so‘kinish’ga va hokazolarga aslo yo‘l qo‘ymaslik kerak. Rahbarning shaxsiy obro‘si ko‘p jihatdan u o‘z fikrini qay tarzda bildirishiga, qanday so‘zlashiga bog‘liq.

⁴ G‘ulomov S S B egalov A Informatika va axborot texnologiyalari”. T:Fan, 2010.112 bet

Noformal kommunikatsiya – bu rahbar atrofidagi shov-shuvlar, rahbarning xizmatga doir bo‘lmagan shaxsiy aloqalari, norasmiy kanallar bilan axborot almashuvlari kiradi. Bunday axborot almashuvi chegara doirasida bo‘lishi kerak.

Kommunikatsion jarayon – bu ikki va undan ortiq odamlar o‘rtasidagi axborot almashish jarayonidir. Bu jarayonda to‘rtta bazaviy unsur qatnashadi:

- axborotni jo‘natuvchi;
- axborotning o‘zi (xabar);
- aloqa kanali, ya’ni axborotni uzatish vositasi;
- axborotni qabul qiluvchi.

Ana shu to‘rt unsur bir-biri bilan hamohang ishlagandagina, axborot o‘z vazifasini bajaradi. Axborotlarni almashuv jarayonida har ikkila tomon (jo‘natuvchi va qabul qiluvchi) faol rol o‘ynashi kerak.

Kommunikatsion jarayonni quyidagi 6 bosqich ketma-ketligida bajariladigan ishlar majmuasi tariqasida ifodalash mumkin

1. Axborot tanlash va g‘oyani shakllantirish. Bu bosqichda axborotni qabul qiluvchiga qanday topshiriqni, qaysi g‘oyani berish to‘g‘risida fikrlaydi va uni shakllantiradi.

2. Axborotlarni kodlashtirish va axborot (xabar)ni shakllantirish. Bu erda axborotni jo‘natuvchi o‘zining g‘oyasini grafik va chizmalarda, yozma ovozda yoki tasvirda kodlashtiradi.

3. Aloqa qilish kanalini tanlash va axborot (xabar)ni uzatish. Kodlashtirish bilan bir qatorda axborotni uzatuvchi kommunikatsiyaga muvofiq ravishda uzatish kanalini tanlaydi. Shunday kanallar turkumiga: pochta, telefon, telefaks, elektron pochta, kompyuter shoxobchasi va boshqalar kiradi.

4. Dekodlashtirish va axborotni qabul qilish. Dekodlashtirish deganda, uzatilayotgan xabarni, axborotni qabul qiluvchi fikriga o‘tkazish, belgilarda ifodalash tushuniladi. Agar bir tomon axborotni taklif etsa, ikkinchi tomon uni hech qanday to‘siqsiz uzatsa, axborot yetkazilguncha yo‘l-yo‘lakay turli shov-shuvlarga duch kelib, asl mohiyatini yo‘qotishi mumkin. Shu sababli, teskari aloqa ham mavjud

5. Axborotni talqin qilish va javobni shakllantirish. Bu bosqichda axborot uzatuvchi

bilan axborotni qabul qiluvchi o'z o'rinlari bilan almashinadilar. Axborotni qabul qiluvchi olgan axborotni talqin qiladi va javobni shakllantiradi.

6. Javobni uzatish. Shakllantirilgan javob tanlab olingan kanal orqali axborotni uzatganga qayta uzatiladi va shu bilan kommunikatsion jarayon tugaydi. Hozirgi paytda eng muhim kommunikatsiya vositasi sifatida kompyuterlar xizmat ko'rsatmoqda. Ular yordamida axborot to'planadi, dasturlar tuziladi, ma'lumotlar banki hosil qilinadi. Kompyuterlar nafaqat tashkilotni boshqarish uchun, balki iqtisodiyotning barcha jabhalari uchun o'ta zarur. Shuni qayd qilish lozimki, shaxslararo axborot almashuv jarayonida ayrim muammolar tug'ilishi mumkin. Shunday muammolar turkumiga quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- idrok qilishdagi ruhiy farq;
- ma'naviy (semantik) to'siq;
- noverbal imo-ishoralar;
- fil'trlash;
- aloqa kanallarining haddan tashqari ko'payib ketishi;
- nomaqbul tashkiliy struktura (tarkib).

Ma'lumki, kishilar bir xil ma'lumotni o'zlarining bilim darajalari, hayotiy tajribalari, qiziqish doiralari, ehtiyojlari, hissiy tuyg'ularining turlichaligidan, o'zlaricha turlicha talqin qiladilar va qabul qiladilar. Bu o'rinda rahbar bilan bo'ysunuvchi o'rtasidagi munosabat ham muhim rol o'ynaydi. Bir-biriga ishonch va o'zaro bir-birini anglash bor joyda, axborot ko'lami kengayadi, ularning aniqligi oshadi, javobgarlik ham bir xilda bo'ladi.⁵

Ma'naviy (semantik) to'siq uzatilayotgan axborotni kodlashtirishda qo'llanilgan belgi (simvol)larning axborotni qabul qiluvchilar didlariga, ularning lavozimlari, mavqelari, mintalitet, milliy urf-odatlarini nutai nazardan, mos tushmaganligida namoyon bo'ladi.

Simvol (belgi)lardan tashqari axborotlar bilan almashuv chog'ida noverbal, ya'ni og'zaki yoki so'zda emas balki imo-ishoralar, masalan, chehra, savlat, vajohat, tovushning o'zgarib turishi kabilar ham, bajaruvchiga aytiladigan so'z mohiyatini tubdan

⁵ Титоренко А. Автоматизированные информационные технологии в экономике: Учебник. М.: ЮНИТИ, 2006, - с. 43

o'zgartirilgan holda, yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ruhshunoslarning fikricha, so'z bilan aytiladigan axborotning 90 foizigacha qismi so'z orqali emas, balki noverbal yo'l bilan qabul qilinar ekan.

Filtrlash – axborotning iste'molchiga tez etib borishi jarayonida uni ixchamlashtirish, noxush "ma'lumotlar" dan tozalash maqsadida axborot soddalashtiriladi, qayta ishlanadi, tegishlixa umumlashtiriladi. Bundan tashqari, quyi bo'g'indagi rahbarlar, o'zlari xohlamagan, ammo yuqori bo'g'indagi rahbarlar bilishi shart bo'lmagan axborotlarni yubormaydilar. Shu tariqa, axborotlar filtrlanadi.

Aloqa kanallarining haddan tashqari ko'payib ketishi ham, kommunikatsion jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday muammo axborotlarni qayta ishlash va ularni uzatish vositalarning yetishmovchiligi yoki ularning nomukammalligi oqibatida sodir bo'ladi.

Noma'qul tashkiliy struktura ham kommunikatsion jarayonida muammo tug'diruvchi omillardan biri hisoblanadi. Qanchalik boshqaruv bo'g'inlari ko'p bo'lib, funktsiyalar, vazifalar va vakolatlar bir-birini ko'p takrorlasa, shunchalik axborotning manzilga etib borishi sekinlashadi. Natijada, shu davr ichida har bir bo'g'inda o'ziga maqbul bo'lgan "tuzatishlar" kiritiladi. Bu jarayonda bo'limlar va bo'g'inlarda sodir bo'ladigan ixtiloflar axborotlar almashuviga va qarorlarni qabul qilishga jiddiy to'siqlarni yaratadi.


1.3. Innovatsion boshqarish jarayonlarini amalga oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Innovatsion boshqarish - boshqaruvning mazmun va sifat jihatidan ma'lum bir darajasini hamda boshqaruv faoliyatining o'ziga xos tavsifini anglatadi. Ya'ni, bu o'rinda an'anaviy hisoblanib kelgan boshqaruv usul va vositalari, tamoyillari, ichki xususiyat va belgilari, mezonlari, shart-sharoitlari yoki muhiti tarkibiga endilikda yangicha tavsif kasb etuvchi bilimlar, texnologiyalar, usul va vositalar, yondashuvlar kiritiladi. Ta'kidlash muhimki, doimo ham innovatsion boshqaruv an'anaviy boshqaruvni umuman inkor etadi yoki to'liq almashtiradi, deb bo'lmaydi. Bu o'rinda innovatsion boshqaruv uning tizimidagi muayyan bir elementni sifat jihatidan o'zgartirishdan tortib to butunlay yangi boshqaruv tizimini qo'llashgacha bo'lgan keng diapazonni namoyon etadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorligi hamda o'sish sur'atlarini oshirish rivojlanishning innovatsion yo'lidan borishni taqozo etadi. Innovatsiyalarni jadal tatbiq etish eng avvalo mavjud ishlab chiqarishni har tomonlama modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni zarur qilib qo'yadi. Modernizatsiyalash juda keng tushuncha bo'lib, uni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga tatbiqan qo'llash mumkin.

Bankni boshqarishdagi axborot texnologiyalari yuzaga kelgan axborot oqimlari va ularning bankning tashkiliy tuzilishidagi mazmunini hisobga oladi. Bankni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (KBAT)ni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lgan har qanday yirik bankda tashkiliy tuzilishning namunaviy bloklarini ajratish mumkin.

Axborot menejmenti bankning axborot faoliyatini va undagi axborot jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishni o'z ichiga oladi.



4 - rasm. Axborot menejmenti unsurlari va obyektlari⁶

Eng taraqqiy topgan axborot tizimini loyihalash quyidagilarga asoslanishi lozim:

- bank sohasida qo'llanilayotgan axborot tizimini tahlil qilish, asosiy axborot oqimlarini o'rganish;

⁶ Гулин. В.Н. Информационный менеджмент: Учебный комплекс. Минск: Современ. Шк., 2009, -с. 176


- axborot tizimi iqtisodiy modelini ishlab chiqish, axborotning zarur hajmi va mazmunini belgilash;
- axborotni to'plash va qayta ishlash uchun zarur texnik vositalarni sozlash;
- axborotni qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish;
- axborotning yuzaga kelishi va shlatilishi davriyligini aniqlash;
- bank tizimida qo'llanilayotgan axborot uchun shifrlar tizimini ishlab chiqish;
- standart xabarlariga axborot uzatish va qayta ishlashni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish uchun qulay shakl berish maqsadida ularni loyihalash;
- loyihalash davomida olingan barcha materiallarni rasmiylashtirish va tizimlashtirish.

Boshqaruv texnikasi aqliy mehnat taktikasidir, boshqaruv sohasida axborotni qayta ishlash texnikasidir. Texnik vositalar takomillashgani sari boshqaruv texnologiyasi, boshqaruv mehnati tashkil etilishi va butun boshqaruv jarayoni samaraliroq bo'lmoqda. Boshqaruv texnikasini faqat hisoblash mashinalaridan iborat, deb bilish noto'g'ridir. Texnik vositalar ilk bor 100 yil avval paydo bo'lgan. Ruchkalar, chizgichlar va oddiy kartotekalardan tortib hozirgacha ikkita asosiy sinfga bulish mumkin: tashkiliy texnika vositalari va xisoblash mashinalari.

Tashkiliy texnika vositalariga ko'pgina qurilma va moslamalar (oddiy qurol va moslamalar, axborotni olish, qayta ishlash uchun boshqaruv mashinalari, nusxa ko'chirish va ko'paytirish, aloqa vositalari, axborot saqlagichlar va xizmat ko'rsatish vositalari, xizmat xonalari uskunalari) kiradi. Boshqaruv o'z faoliyatida juda ko'p oddiy qurol va moslamalarni (qalam, ruchka, yozuv kitoblari, kartochkalar, jadvallar, chizmalar va boshqalar) ishlatadi. Eng so'nggi avlod EHMLari va kompyuterlar oddiy texnik vositalar (qalam va chizg'ichlar) o'rnini to'liq bosa olmaydi. Boshqaruv mehnatida murakkab texnik uskunalar va moslamalarni axborotni qayta ishlash bosqichlariga ko'ra guruhlariga jamlash mumkin. Bu, eng avvalo, yozuv qurollari (qalam, ruchka, mo'yqalam, trafaretlar), tasvir vositalari (chizma, diagramma, nazorat va dispetcher taxtalari, yo'nalish sxemalari va boshqalar),

hujjatlarni saqlash vositalari (javonlar, konvertlar, kartotekalar, perfokarta va boshqalar), axborotni olish va qayd etish vositalari (tarozi, soat, o'lchagich, tablo va turli hisoblash asboblari, yozuv va nusxa ko'chirish mashinalari), aloqa vositalari (telefon, ATS, direktor va dispetcher kommutatorlari, radioaloqa, radiofonlar, avariyaaviy va chaqiriladigan signalizatsiya, to'ldiruvchi qurilmalar va boshqalar), axborotni saqlovchi (tovush, yorug'lik, kartochkalar, oyna, metall, turli qoplamalar) va h.k. lardan iborat.

Boshqaruv jarayonida zarur axborot qayd etiladi, saqlanadi, to'planadi, qayta ishlanadi va uzatiladi (5 -rasm).



5 -rasm. Iqtisodiyot obektini boshqarishda axborot jarayonlari⁷

Korxonani boshqarishdagi axborot texnologiyalari yuzaga kelgan axborot oqimlari va ularning korxonaning tashkiliy tuzilishidagi mazmunini hisobga oladi. Korxonani boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (KBAT)ni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lgan har qanday yirik korxonada tashkiliy tuzilishning namunaviy bloklarini ajratish mumkin.

Zamonaviy yirik banklarda axborot hajmi million hujjat satrigacha etadi, bu

⁷ Автоматизированные информационные технологии в экономике: Учебник. Под ред. проф. А. Титоренко. - М.: ЮНИТИ, 2006, - с. 43

o'rinda barcha axborot tex qayta ishlanishi zarurligini ham inobatga olish zarur. Bunday sharoitda axborot bilan ishlashni tashkil etish bo'yicha quyidagi qator muammolarni hal etish lozim bo'ladi:

- maqbul axborot tizimini ishlab chiqish;
- axborot oqimlarini shakllantirish usullarini ishlab chiqish;
- axborot qabul qilish yuborishning maqbul usullarini tanlash;
- axborotni saqlash va izlash jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- axborotni saqlash va izlashni tashkil etish;

Birinchi bob bo'yicha xulosa

– Axborot - bu ma'lumot va xabarlar to'plami bo'lib, mazmunan yangilik unsurlariga ega bo'ladi va boshqaruv vazifalarini hal etish uchun o'ta zarurdir. Ishonchli va zarur axborotlarsiz boshqarishni amalga oshirib bo'lmaydi.

– Axborot tushunarli bo'lishi kerak, chalkash, bir-biri bilan taqqoslab bo'lmaydigan ko'rsatkichlar to'g'ri rahbarlik qilishga va o'z vaqtida qaror qabul qilishga putur etkazadi.

– Kommunikatsiya – bu kishilar o'rtasidagi o'zaro axborot almashuvidir. Rahbarlar qilayotgan hamma ishlar axborotlarning samarali almashishini talab qiladi. Yaxshi yo'lga qo'yilgan kommunikatsiya ish muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

– Bank tizimida innovatsion boshqarish - boshqaruvning mazmun va sifat jihatidan ma'lum bir darajasini hamda boshqaruv faoliyatining o'ziga xos tavsifini anglatadi. Ya'ni, bu o'rinda an'anaviy hisoblanib kelgan boshqaruv usul va vositalari, tamoyillari, ichki xususiyat va belgilari, mezonlari, shart- sharoitlari yoki muhiti tarkibiga endilikda yangicha tavsif kasb etuvchi bilimlar, texnologiyalar, usul va vositalar, yondashuvlar kiritiladi.

– Bankni boshqarishdagi axborot texnologiyalari yuzaga kelgan axborot oqimlari va ularning bankning tashkiliy tuzilishidagi mazmunini hisobga oladi.

II BOB. IPOTEKA BANK” ATIB TOSHKENT SHAXAR FILIALI BOSHQARUV TIZIMINI VA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING HOLATINING TAHLILI

2.1. “Ipoteka bank” ATIB Toshkent shahar filiali faoliyati va boshqaruv tizimining tahlili

“Ipoteka-bank” aktsiyanerlik tijorat ipoteka banki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi “Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-10-sonli qaroriga binoan, “O‘zuyjoyjamg‘armabank” va “Zaminbank”lari negizida tashkil topgan. Ushbu qarorda bank oldiga uzoq muddatli ipoteka krediti berish tizimini joriy etish, uy-joy quruvchi tashkilotlarga kredit ajratish hamda ushbu maqsad uchun mahalliy va xorijiy investitsiya mablag‘larini jalb qilish, bankning respublika bo‘yicha filiallar tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy, tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga kredit ajratish kabi ustuvor vazifalar qo‘yilgan.

Bank ushbu vazifalarni ustuvor yo‘nalish sifatida o‘zining biznes-rejasi, uzoq muddatli strategiyasi va bankni rivojlantirish kontseptsiyasida o‘z aksini topgan.

Ipoteka-Bank missiyasi – o‘z aksiyadorlari va bank mijozlari uchun eng yuqori darajadagi iqtisodiy qadriyatlarni yaratishdan iborat. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishning yuqori sifati va tanlangan bozorlardagi etakchilik, kelajakdagi bank muvaffaqiyati uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Bankning korporativ qadriyatlari – jamoaviy ruh, yangicha fikrlash, ijobiy munosabat, ajoyib sifat – bank missiyasini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Mijozlarga keng ko‘lamdagi bank xizmatlarini taqdim etgan holda, bank mamlakat iqtisodini ko‘tarish va rivojlantirish uchun asoslar va sharoitlarni yaratishga ko‘maklashishga intiladi. O‘z mijozlariga xizmatlarni taqdim etishda Ipoteka-Bank professionalizmning yuqori standartlariga muvofiq bo‘lish, yangiliklarni qo‘llash, yangi g‘oyalarga ochiqlik, fikrlardan foydalanish hamda qat’iy va izchil faoliyatni amalga oshirishga sodiqdir.

Bugungi kunda bankning 10 yillik faoliyati davomida:

- aholiga foydalanishga topshirilgan uylar soni 407 tani, kvartiralar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etdi, kvartiralarning umumiy maydoni esa 1 mln. kv.m.dan oshdi;

- uy-joy qurilishi uchun uzoq muddatli ipoteka krediti berish tizimi joriy etilib, 10 yil ichida jami 436,8 mlrd. so‘m ipoteka kreditlari ajratildi, jumladan, yosh oilalarga berilgan ipoteka kreditlari hajmi 197,6 mlrd.so‘m, qishloq joylarda ajratilgan ipoteka kreditlari miqdori 141,3 mlrd.so‘mni;

- uy-joy qurilishi uchun o‘zlashtirilgan kapital qo‘yilmalar miqdori 302,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, bank mablag‘i hisobiga ko‘p qavatli uy-joylarni qurish hamda ushbu uylarni aholiga kreditga berish tizimi ilk bor bizning bankda yaratilib, buning natijasida uy-joy bozorida xalq tili bilan aytganda, “bank qurgan uylar” iborasi paydo bo‘lgan. O‘zingizga ma’lum, bugungi kunda ham ushbu uylarga talab yuqori bo‘lib qolmoqda. Ipoteka-bank tashkil etilgandan so‘ng, mazkur tizimni Prezidentimiz qarorlarida belgilab berilgan vazifalar asosida yanada kengaytirishga va rivojlantirishga muvaffaq bo‘lindi.Shuningdek, bank nafaqat ko‘p qavatli uy-joylar qurilishini moliyalashtirishda, balki qishloq joylarda namunaviy uy-joylarni qurilishini moliyalashtirishda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Masalan, 2013 yilda 620 ta xonadon va 2014 yilda 1000 ta xonadon qurilishi moliyalashtirildi. Joriy yilda bu uylar sonini 2180 taga yetkazish rejalashtirilgan⁸.

Ipoteka-bank zamonaviy, tejamli, bozorda talab yuqori bo‘lgan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni kredit bilan ta’minlab kelmoqda. Oxirgi 3 yilning o‘zida bu yo‘nalishga bank tomonidan jami 139,4 mlrd. so‘mlik kredit hisobiga 382 ta loyiha moliyalashtirildi. Bugungi kunda bank mijozlari tomonidan plastik quvurlar, lak-bo‘yoq, mix, g‘isht, shifer, mayolika (mayda kafel) kabi bozorda talab yuqori bo‘lgan qurilish materiallari ishlab chiqarilmoqda.

⁸ “Ipoteka bank” ATIB yillik hisoboti ma’lumotlari

2-jadval**2014-2015 yillarda Ipoteka tijorat banki aktivlari dinamikasi⁹**

T/r	Ko'rsatkichlar	2014y.	2015y.	O'sish sur'ati,%
1.	Ivestitsiyalar	80412991	44072877	54,9
2.	Asosiy vositalar	100227444	87856695	87,7
3.	Brutto kreditlar	2544855805	3354589589	131,8
4.	Lizing operatsiyalari	39930216	35611367	89,1
5.	Olingan bank foizlari	11008330	5358018	48,7

Ipoteka-bank tomonidan yuqoridagi qarorda keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bilan bir qatorda, iqtisodiy islohotlarga yaqindan ko'maklashish, kichik biznesni kreditlash, aholiga chakana bank xizmatlari ko'rsatish orqali bankning universalligini oshirishga ham alohida e'tibor qaratildi.

3-jadval**2014-2015 yillarda Ipoteka tijorat banki majburiyatlari dinamikasi¹⁰**

t/r	Ko'rsatkichlar	2014y.	2015y.	O'sish sur'ati,%
1.	Muddatli depozitlar	1232580481	1346296	0,109
2.	Jamg'arma depozitlar	50625043	81263474	85,9
3.	Kredit, lizing operatsiyalari bo'yicha to'lovlar	946258848	1409526557	149,0
4.	Boshqa banklarga to'lovlar	139723400	191698400	137,2
5.	Boshqa majburiyatlar	132539699	356738	2,84

Bank tomonidan yirik kompaniya hamda kichik biznes subyektlarining investitsion loyihalarini, shuningdek, ipoteka krediti berishni moliyalashtirish uchun xalqaro va mahalliy moliya institutlarining investitsiya, grantlarini jalb etishda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bularning natijasi sifatida Germaniya KfV (KfW) bankining 5 mln. evrolik, Islom taraqqiyot bankining 2,5 mln. AQSh dollarilik, Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasining 10 mln. AQSh dollarilik, Germaniya "Kommertsbanki"ning 28 mln. evrolik, Germaniya "Landesbanki"ning 25 mln. evrolik kredit liniyalarini sanab o'tish mumkin. Hozirda Koreya Respublikasi "Eksimbanki"ning 10 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyasini jalb etish borasida muzokaralar olib borilmoqda.

⁹ "Ipoteka bank" ATIB yillik xisoboti ma'lumotlari

¹⁰ "Ipoteka bank" ATIB yillik xisoboti ma'lumotlari

Respublika mintaqalarida bankning ixtisoslashtirilgan xizmatlaridan aholining keng foydalanishini ta'minlaydigan filiallar tarmog'i rivojlantirilmoqda.

Xususan, shu qisqa vaqt ichida Farg'ona qiloyatida Qo'qon filiali ishga tushirildi. Joriy yilda Toshkent viloyatida Zangiota filiali ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Bankning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha so'z yuritilsa, 10 yil ichida bankning sof aktivlari 15 barobar o'sib, 3,3 trln. so'mni, jumladan, kreditlar qoldig'i 20 barobar o'sib, 2,4 trln. so'mni, bank kapitali 9 barobar o'sib, 287,3 mlrd. so'mni, aholi omonatlari 20 barobar o'sib, 473 mlrd. so'mni, yuridik shaxslar depozitlari 12 barobar o'sib, 1,3 trln. so'mni tashkil etdi. Tarqatilgan plastik kartalar soni 50 barobar o'sib, 1,234 mln. donadan oshdi.

Bank o'z strategiyasiga tayangan holda erishayotgan ijobiy ishlari hamda yutuqlarini uning faoliyatiga baho berayotgan reyting kompaniyalari xulosalarida ham ko'rish mumkin. Ushbu hulosalarni Moody's va Standard & Poor's xalqaro reyting kompaniyalari tasdiqlab bankka istiqboli "Barqaror" reytingini berganlar. Rossiyaning "RIA Reyting" agentligi tomonidan e'lon qilingan "MDH mamlakatlarning 200 ta eng yirik tijorat banklari ro'yxati"da – Ipoteka-bank ham o'rin olib, ro'yxatga kirgan yurtimiz banklari ichida 4-o'rinni egalladi.

Bank strategiyasining asosiy yo'nalishlari:

- iqtisodiyotning real sektoridagi kompaniyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni davom ettirish;
- investitsion xarakterga ega bo'lgan kreditlari hajmini yanada oshirib borish;
- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi kompaniyalarni, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha to'plangan tajribani yanada mustahkamlash, yosh oilalar, qishloq xududlarida servis sohasini rivojlantirishni kreditlashga alohida e'tibor qaratish;
- bankning universal faoliyatini rivojlantirib borish, chakana xizmatlar ko'lamini oshirish;
- Ipoteka-bank mijozlariga bank xizmatlarining to'liq spektrini taqdim etish, yangi bank xizmatlarini joriy etish;

- korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan birgalikda chakana bank xizmatlarini ham rivojlantirib borish;

- chakana bank xizmatlariga axborot texnologiyalarni joriy qilib borish;

- aholidan kommunal to'lovlarni yig'ish bo'yicha erishilgan natijalarni mustahkamlash, kommunal tashkilotlar bilan elektron axborotlarni bevosita almashuvini tashkil qilish.

Uy-joy qurilishi sohasidagi faoliyati:

- aholi uchun shaharlarda ko'p qavatli uy-joylar qurilishini moliyalashtirish hajmlarini oshirish;

- respublikamiz aholisiga jalb etiladigan mablag'lar evaziga uzoq muddatli ipoteka kreditlari berishni rivojlantirish;

Xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish:

- chet el banklari va xalqaro moliya institutlari bilan yangi aloqalar bog'lash, mavjudlari bilan hamkorlikni mustahkamlash va ularni loyihalarni moliyalashtirishga keng jalb etish, chet el banklari va milliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida vositachilik qilish;

- uzoq muddatli ipoteka kreditlarini berishda chet el kredit liniyalarini jalb etish;

- jahonda zamonaviy bank amaliyotida qo'llaniladigan bank xizmatlarini o'rganib borish va bank faoliyatiga moslashtirgan holda joriy etish;

Kadrlar siyosatining ustuvorliklari:

- xodimlarni doimo malakasini oshirib borish, chet tili va zamonaviy dasturiy ta'minotni o'rgatib borish;

- mehnat staji katta tajribali xodimlar, rahbarlar va yosh mutahassislar o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish orqali, Ipoteka-bank tizimida to'plangan tajribalarni keyingi avlod xodimlarida ham saqlab, rivojlantirib borishini ta'minlash;

- kadrlarga bo'lgan talabni oldindan o'rgangan holda oliy o'quv yurtlaridan muvaffaqiyatli bitiruvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish va birinchi navbatda filiallarni ular bilan ta'minlash.

“Ipoteka bank” ATIB boshqaruvining tashkiliy tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, kompaniya faoliyatini Bank aktsiyanerlari umumiy yig‘ilishi, Bank Kengashi boshqaradi. Bank Kengashi Bank boshqaruvi raisini tayinlaydi. Bank Boshqaruviga:

- Boshqaruv raisining o‘rinbosarlari, bosh buxgalter, Departament va Boshqarmalarning boshliqlari;

- filial va bo‘linmalarning rahbarlari;

- bank faoliyatining muhim yo‘nalishlarini ta’minlovchi boshqa mutaxassislar kirishi mumkin. Boshqaruv a‘zolari Bank Kengashi tomonidan tayinlanadi. Bank Boshqaruvi a‘zolarining soni 7 (etti) kishidan iborat.

Boshqaruv Raisi va uning birinchi o‘rinbosari lavozimlariga nomzodlar Bank Kengashi tomonidan Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Bank Boshqaruvi Raisi bilan mehnat shartnomasini Bank nomidan Bank Kengashi Raisi imzolaydi, Boshqaruv Raisining o‘rinbosarlari, Boshqaruv a‘zolari va Bank bosh buxgalteri bilan mehnat shartnomalarini Boshqaruv Raisi imzolaydi. Bank filiallari rahbarlari Bank Boshqaruvi tomonidan qonunchilikka muvofiq tayinlanadi. Bank Boshqaruvi Raisi Bank filiallarining rahbarlari bilan Bank nomidan mehnat shartnomalari tuzadi. Bank Boshqaruvi Aktsiyanerlar Umumiy yig‘ilishi va Bank Kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi. Boshqaruv Bank Kengashi va Aktsiyanerlar Umumiy yig‘ilishiga hisobot beradi. Boshqaruvning majlisi zarur hollarda, biroq bir oyda kamida bir marta o‘tkaziladi Bank Boshqaruvi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda Boshqaruv a‘zolarining 50 foizidan ortiq qismi qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

Boshqaruv Raisi:

- Bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, boshqa tashkilotlar va organlar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarda uning manfaatlarini ifodalash;

- Bankning Ustavi yoki boshqa hujjatlari bilan oldindan kelishgan doiralarda uning mol-mulki va pul-mablag‘larini tasarruf qilish;

- shartnomalar va kontraktlar, shu jumladan mehnat shartnoma (kontrakt)lari tuzish;

- ishonchnomalar berish;

- banklarda vakillik va boshqa hisob varaqlarni ochish;
- o'ziga bo'ysunuvchi barcha xodimlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- xodimlar shtatini tasdiqlash, uni butlash;
- Bankning ichki me'yoriy hujjatlari (nizomlar, yo'riqnomalar, qoidalar, texnik tartib-qoidalar, uslubiyatlar, tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari va boshqalar)ni tasdiqlash huquqiga egadir.

Boshqaruv Raisining vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'z vakolatlari doirasida Bankning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish, Aksiyadorlar

Umumiy yig'ilishi va Kengashning mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalardan tashqari;

- Aksiyanerlar Umumiy yig'ilishi va Bank Kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

- departamentlar, boshqarmalar, bo'limlar, filiallar va Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;

- Bank shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;

- Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;

- Bankni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqilishiga rahbarlik qilish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;

- Bank faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

- Bankda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

- Bankning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar Bankning Kengashi, Taftish komissiyasi yoki Bank auditori talabiga ko'ra to'siqsiz taqdim etish;

- davlat statistika hisoboti tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim

etilishini ta'minlash;

-Bankning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash, agar bunday axborotni uchinchi shaxslarga berish uning vazifalari doirasiga kirmasa, Bankning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Kengash tomonidan belgilanadi;

-xizmat yoki tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning Bank xodimlari tomonidan saqlanishini ta'minlash;

-Bank Boshqaruvi majlislari o'tkazilishini tashkil etish, Bank nomidan hujjatlarni va Boshqaruv majlisi bayonnomalarini imzolash;

-Bankni malakali kadrlar bilan ta'minlash, Bank xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish chora tadbirlari ko'rish;

-mehnat va ijro intizomini saqlab turish;

-Bank xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilishni ta'minlash;

-jamoa muzokaralarida Boshqaruv vakillarining ishtirokini ta'minlash. Jamoa shartnomalari va bitimlar tuzilishida ish beruvchi sifatida qatnashish. Jamoa shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish;

-o'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga va Bank Kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;

-amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan axborotlar ular tomonidan olinishi, Aktsiyanerlarning Umumiy yig'ilishida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, boshqarishni samarali tashkil etish ko'p jihatdan korxona menejerlariga bog'liq. Bunda ularning vakolatlarini oshirish, tashki aksiyadorlar va jamiyatning kuzatuv kengashi bilan munosabatlarini oqilona yo'lga qo'yish zarur.

Tadqiqot sifatida olingan "Ipoteka Bank" aktsiyanerlik tijorat bankida jamiyatida aksiyadorlar nomidan moliyaviy nazoratni olib borish ma'suliyati yuklangan

shaxslarga nisbatan malakaviy talablar qo'yilishi lozim.

2.2. "Ipoteka bank" ATIB Toshkent shahar filialida innovatsion axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish holatining tahlili

Aholi manfaatlarini ko'zda tutgan, vaqt va mablag'ni tejash imkonini beruvchi kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalarni hal etishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarining o'rni beqiyos. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng muhim bo'lagi – internet hisoblanadi.

Internet – bu global axborot tizimi bo'lib, u elektron pochta, izlash tizimlari, axborot almashinuv chatlari va ijtimoiy tarmoqlarni o'z ichiga oladi va turli axborot-resurslardan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko'paytirib, barcha kompyuterlarga o'rnatgan holda, guruhda yoki individual ishlashni taklif etish mumkin. Internetdan avvaldan kerakli materialni topish, kompyuterga yuklab olish yoki kerakli materialni onlayn tarzda o'qish, ko'rish onlayn suhbatlashish, ularning fikrlarini bevosita tinglash mumkin.

Idora (offis)ning asosiy faoliyati qaror qabul qilish maqsadida axborotni qayta ishlashdir. «Elektron offis» konsepsiyasining haddan tashqari samarali ekanligi ma'lum bo'ldi. Chunki, u boshqaruv shtatini qisqartirish, muassasa bo'linmalari orasidagi kommunikatsiyani yaxshilash, boshqaruv tezligini oshirish imkonini beradi.¹²

«Elektron offis» idora faoliyatida axborot texnologiyasining turli vositalarini qo'llash joyi sanaladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari idoralarga axborotni saqlash, uzatish va qayta ishlashning yangi tamoyillariga asoslangan quyidagi vositalarini taklif etadi: zarur dasturiy ta'minotli shaxsiy kompyuter, yuqori sifatli chop etadigan printer, nusxa ko'paytiruvchi texnika, xotirali telefon, telekonferentsiya o'tkazish uchun apparatura, ma'lumotlarning tashqi bazasi. Elektron offis – boshqaruv mehnatini avtomatlashtirish va boshqaruvchilarni axborot bilan yaxshiroq ta'minlash imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan offisning axborot texnologiyasi – kompyuter tarmoqlari bazasida tashqi muhit va tashkilot ichida kommunikatsiya jarayonlarini

¹² Коноплева И.А., Хохлова О.А., Денисов А.В., Информационная технология: учеб пособие. под ред. И.А.Коноплевой. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2007, - С

tashkil etish hamda qo‘llab-quvvatlashdir.

Ko‘pgina shaxsiy kompyuterlar uchun integrallashtirilgan va ixtisoslashtirilgan dastur paketlari turli funksiyalarga «menyu» (imkoniyatlar ro‘yxatlari va tanlash parametrlari) orqali kirishni ta’minlaydi. Telekonferentsiyalarning ikki alohida turi – kompyuterlashgan telekonferentsiyalar va videokonferentsiyalarga ajraladi. Videokonferentsiyalar jismoniy jihatdan turli joylarda bo‘lgan ishtirokchilarga bir-birini ko‘rish va eshitish imkonini beradiki, bu hol xuddi bir joyda mavjud bo‘lish tasavvurini uyg‘otadi. Shaxsiy kompyuterlardan keng foydalanish kompyuterlashgan telekonferentsiyalarning o‘lishiga olib keladi.


Lokal tarmoq hamkasblarning terminallariga, muassasalardagi ixtisoslashgan ma’lumotlar bazasiga va markazlashgan xizmatlarga (asosiy kompyuterlar, axborot fayllarga) kirish imkonini beradi. Lokal tarmoq idora kommunikatsiyasini ta’minlaydi va katta axborot oqimlarini uzatishga qobil.

Zamonaviy, ma’lum ma’noda, ideal idora boshqaruv mutaxassislari va idoraning boshqa xodimlari mehnatini kompleks avtomatlashtirishni ta’minlashlari lozim. AQSh boshqaruv organlarida bunday offislarda ish hajmining 37% bajariladi va unga sarflanayotgan vaqtni esa 24% ga kamaytirdi. «Elektron offis» konsepsiyasini amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarish sekin-asta boshqarish usul va metodlarini o‘zgartirishga, bir qator xodimlar vazifalarini qayta ko‘rib chiqishga, mehnat samaradorligini oshirishga olib kelmoqda.

Har bir karta sohibi uchun bank maxsus bank hisobraqam ochadi. Ushbu hisob varaqda kartochka egasi o‘z ixtiyori bo‘yicha foydalanishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari saqlanadi. Kartochka ushbu hisobvaraqdan foydalanish uchun o‘ziga xos “kalit” hisoblanadi. Kartochkasiz ushbu hisobraqam bo‘yicha birorta ham amaliyotni amalga oshirish mumkin emas.

Mikrochip – kartochka sohibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, PIN kodlar va kartochka bilan amalga oshirish uchun foydalaniladigan boshqa ma’lumotlarni o‘zida shifrlangan ko‘rinishda saqlovchi moslama.


Plastik karta orqali quyidagilarni amalga oshirish mumkin bo‘lgan ishlarni quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin (7-rasm).



7-rasm. Plastik karta orqali amalga oshirish mumkin bo'lgan ishlar¹³

PIN kodlar – bu faqat kartochka sohibiga ma'lum bo'lgan parollar. Ulardan kartochka egasi karta bo'yicha amaliyotlarni tasdiqlash uchun foydalanadi. PIN kodlarning ikki turidan foydalaniladi: PIN №1 - mablag'ni kartochkaga kirim qilish uchun, PIN №2 – mablag'ni harajat qilish uchun parol.

Ipoteka banki faoliyatida axborot kommunikatsiyalardan samarali foydalangan holda amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlarni quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin (8-rasm).



8-rasm. Axborot kommunikatsiyalardan samarali foydalangan holda amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar¹⁴

¹³ Talaba ishlanmasi

¹⁴ Talaba ishlanmasi

Ipoteka banki faoliyatida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlardan biri VISA kartasini joriy etishdir. VISA kartasi xorij mamlakatlarida keng tarqalgan. O'z sohasida standartga aylangan ushbu kartalar qulaylik va yuqori darajadagi ishonchlilikni birlashtirgan. Istalgan turdagi xaridni amalga oshirish va naqd pul echish mumkin.

Visa Elektron va Visa Classic kartalari ko'p vaqtlarini ishga sarflaydigan tez-tez sayohatga chiqadigan kishilar uchun juda zarurdir. Bunday karta bilan dunyoning istalgan mamlakatidagi do'konlar, restoranlar va boshqa savdo nuqtalarida to'lovni amalga oshirish juda qulaydir. Bundan tashqari VisaElectron va Visa Classic kartalari yordamida Siz, masalan, mehmonxonadagi nomerga buyurtma berishingiz yoki avtomobilni ijaraga olishingiz mumkin. Bu sayohatchilar uchun yanada dolzarbroqdir, chunki dunyoning ko'pgina mamlakatlarida tovar va xizmatlar uchun to'lov usuli sifatida anchadan beri naqd pullarga nisbatan plastik kartochkalar afzal ko'rilmogda. Butun dunyo bo'ylab yuz minglab bankomatlar va 22 milliondan ortiq savdo nuqtalari VISA kartalarini qabul qilmoqdalar.

Ipoteka bankida xalqaro pul o'tkazmalari bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Xalqaro pul o'tkazmalari – jismoniy shaxslarning pul mablag'larini qisqa vaqt ichida butun dunyo bo'ylab ko'chirishga imkon beruvchi o'ziga xos bank xizmati. Agar sizda qandaydir mablag'ni xorijdagi do'stlaringiz yoki qarindoshlaringizga yuborish zarurati tug'ilib qolsa, Ipoteka-bank sizga xalqaro pul o'tkazmalari tizimidan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Sizning pullaringiz sanoqli daqiqalar ichida jo'natiladi.

Ipoteka-bank MDH davlatlari va uzoq xorij mamlakatlari bo'yicha pul o'tkazmalari tizimlarining keng tanlovini taklif qiladi. O'tkazmalarni Ipoteka-bankning pul o'tkazmalari shahobchalaridan birortasida amalga oshirish mumkin. O'tkazmani jo'natish yoki olish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etilishi lozim. O'tkazmani olishda yana nazorat raqami, o'tkazma summasi hamda jo'natuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va jo'natilgan mamlakatni ham bilish zarur.

Ipoteka bankida xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishning yo'nalishlaridan biri Western Union o'tkazmalari hisoblanadi.

Western Union naqd pullarni xorijdagi do'stlaringiz yoki tanishlaringizga tezkor o'tkazish zaruriyati vujudga kelganda, yoki, aksincha, begona mamlakatda bo'lgan holda pulga muxtojlikni sezganingizda Ipoteka-bank Sizga bunday muammolarni hal qilishning tez va ishonchli usulini – Western Union pul o'tkazmalarini taklif qiladi.

Oluvchilar pul o'tkazmani jo'natilgandan bir necha daqiqa o'tganidan so'ng olishlari mumkin (o'tkazmani amalga oshirish muddati bir necha kunlarga etishi mumkin bo'lgan o'tkazmalar bundan mustasno). Biroq jo'natishda o'tkazma olinadigan mintaqadagi Western Union agentlik shahobchasining ish vaqtini ham hisobga olish kerak.

Western Union xalqaro tizimi 135 dan ortiq mamlakatlarga pul o'tkazmalarini amalga oshiradi. Western Union tufayli er yuzining barcha nuqtalaridagi millionlab odamlar naqd pul bilan bog'liq muammolarini samarali tarzda hal qiladilar. Buning uchun Western Union eng yangi elektron texnologiyalar va o'zining kompyuter tarmog'idan foydalanadi. Har bir pul o'tkazmasi jahon talablari darajasidagi xavfsizlik tizimi bilan himoyalangan. U ko'rsatilgan manzilni, mablag'ni aniq va ko'rsatilgan muddatda olinishini kafolatlaydi. Butun dunyo bo'ylab. Hozirgi vaqtda Western Union tizimining dunyodagi 200 dan ortiq mamlakatdagi 386 000 dan ortiq xizmat ko'rsatish shahobchalari faoliyat olib bormoqda. Western Union o'tkazmalarini mamlakat tashqarisiga AQSh dollarida amalga oshirish mumkin. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida o'tkazmani oluvchi shaxs o'z ixtiyori bilan mahalliy valyutadagi naqd pullarni olishi mumkin.

Ipoteka bankida xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishning yo'nalishlaridan biri Yunistrim o'tkazmalari hisoblanadi. Yunistrim tizimi – bu Rossiya, MDH davlatlari va butun dunyo bo'ylab pul o'tkazmalaridir. Yunistrim xalqaro pul o'tkazmalari tizimining 100 ga yaqin mamlakatdagi 330000 dan ortiq xizmat ko'rsatish shahobchalari orqali dunyoga pul mablag'larini jo'natish va olish imkoniyatini beradi.

Ushbu tizimning afzalliklari:

- o'tkazmani olish tezligi (10–15 daqiqa ichida);

- quyi darajadagi tariflar (0,1 – 2 %);
- oluvchi tomonidan xarajatlar qilinmasligi;
- o‘tkazmani rasmiylashtirishning qulay va osonligi;
- pul o‘tkazmalarining naqd pul shaklida qabul qilinishi va berilishi.

Ipoteka bankida xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirishning yo‘nalishlaridan biri “Zolotaya Korona” o‘tkazmalari hisoblanadi. “Zolotaya Korona” hisobraqam ochmasdan turib lahzalik manzilsiz pul o‘tkazmalari tizimi – bu Abxaziya, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, O‘zbekiston, Ukraina, Turkiya va Xitoy mamlakatlarida joylashgan 34 000 dan ortiq xizmat ko‘rsatish shahobchalaridi. Tizim pul o‘tkazmalari bozorida 2003 yildan beri faoliyat ko‘rsatib kelmoqda va bir qator jahon miqyosidagi va mahalliy pul o‘tkazmalari tizimlari bilan hamkorlik tufayli dunyodagi 200 dan ortiq mamlakatda joylashgan shahobchalarga ega.

Ushbu tizimning afzalliklari:

- o‘tkazmalarni pul o‘tkazish shahobchalari orqali jo‘natish va berish tarmog‘i;
- o‘tkazish tezligi – uni u jo‘natilgandan keyin qisqa vaqt ichida olish mumkinligi;
- manzilsizlik – o‘tkazmani rasmiylashtirishda faqat u o‘tkaziladigan mamlakat va shaharni ko‘rsatish zarur. Oluvchining o‘zi uchun eng qulay bo‘lgan shahobchani uning uzi tanlashi mumkin.

Ipoteka bankida xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirishning yo‘nalishlaridan biri Money Gram o‘tkazmalari hisoblanadi. Bu bir jismoniy shaxs tomonidan boshqa jismoniy shaxs foydasiga hisobraqam ochmagan holda amalga oshiriladigan AQSh dollaridagi pul mablag‘lari o‘tkazmasidir. Money Gram pul o‘tkamasi jo‘natilgandan keyin o‘tkazma summasini to‘lash bo‘yicha mijozlar oldidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi. Xattoki Money Gram ning hamkori banki bekaror iqtisodiyot tufayli moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan bo‘lsa ham, bu mijozlarga xizmat ko‘rsatishda aks etmaydi. Chunki

qabul qilingan summalar bo'yicha majburiyatlarni Amerika korporatsiyasi o'z zimmasiga oladi. Money Gram pul o'tkazmasini oluvchi tomonidan olinmagan yoki jo'natuvchining rejalari o'zgarib qolgan hollarda junatilgan summa istalgan vaqtda ortga qaytarilishi mumkin. Jo'natuvchi ham, oluvchi ham kompaniyaning butun dunyo bo'ylab tarqalgan shoxobchalaridan pullarni olishi mumkin. Pulni dunyoning istalgan nuqtasiga o'tkazish vaqti 10–15 daqiqani tashkil qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va aloqa liniyalaridan foydalangan holda qabul qilingan MoneyGram pul o'tkazmasi to'g'risidagi ma'lumotlar sanoqli soniyalar ichida uzatiladi, bu jo'natilgandan keyin 10–15 daqiqa o'tgach dunyoning istalgan nuqtasida oluvchi tomonidan pulni talab qilish imkoniyatini beradi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

- "Ipoteka-bank" aktsiyanerlik tijorat ipoteka banki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi "Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-10-sonli qaroriga binoan, "O'zuyjoyjamg'armabank" va "Zaminbank"lari negizida tashkil topgan.

- Ipoteka - Bank missiyasi — o'z aktsiyanerlari va bank mijozlari uchun eng yuqori darajadagi iqtisodiy qadriyatlarni yaratishdan iborat. Mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori sifati va tanlangan bozorlardagi etakchilik, kelajakdagi bank muvaffaqiyati uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

- Bankning korporativ qadriyatlari — jamoaviy ruh, yangicha fikrlash, ijobiy munosabat, ajoyib sifat — bank missiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mijozlarga keng ko'lamdagi bank xizmatlarini taqdim etgan holda, bank mamlakat iqtisodini ko'tarish va rivojlantirish uchun asoslar va sharoitlarni yaratishga ko'maklashishga intiladi.

- Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng muhim bo'lagi – internet hisoblanadi. Internet – bu global axborot tizimi bo'lib, u elektron pochta, izlash tizimlari, axborot almashinuv chatlari va ijtimoiy tarmoqlarni o'z ichiga oladi va turli axborot-resurslardan foydalanish imkonini beradi.

- Idora (ofis)ning asosiy faoliyati qaror qabul qilish maqsadida axborotni qayta

ishlashdir. «Elektron offis» konseptsiasining haddan tashqari samarali ekanligi ma'lum bo'ldi

- Elektron offis – boshqaruv mehnatini avtomatlashtirish va boshqaruvchilarni axborot bilan yaxshiroq ta'minlash imkonini beradi.

Avtomatlashtirilgan offisning axborot texnologiyasi – kompyuter tarmoqlari bazasida tashqi muhit va tashkilot ichida kommunikatsiya jarayonlarini tashkil etish hamda qo'llab-quvvatlashdir.

III BOB. INNOVATSION BOSHQARUVDA AXBOROT - KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

3.1. Innovatsion boshqaruv jarayonlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning chet el tajribasi

Global jamiyatda sifatli va tezkor yetkazib beriladigan axborot mahsulotlariga bo‘lgan talab doimo o‘sib bormoqda. Hamma boshqarish obektlari ham katta hajmdagi axborot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun ham axborot mahsulotlari va xizmatlarining mamlakatimizda keng tarqalishi uning axborot-texnologik bazasi, aloqa tizimi va malumotlarni uzatish vositalari, axborot mahsulotlarini ishlab chiqishning tovar-xo‘jalik, ishlab chiqarish iqtisodiy sharoitlarining yaxshilanishi bilan bog‘liq. AQShda axborot mahsulotlarini ishlab chiqish allaqachon mamlakat chegarasi miqyosidan chiqib ketgan. Sanoati rivojlangan mamlakatlar axborot resurslariga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘lishadi. Bu axborot resurslari va axborot industriyasining ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ko‘p ilm talab qiladigan raqobatbardoshlik darajasiga hal qiluvchi ta’sir etishi bilan ifodalanadi.

Xorij amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, agar biz axborot resurslariga bo‘lgan munosabatlarimizni tubdan o‘zgartirmasak, AQSh va Yaponiya mamlakatlaridan yanada ortda qolib ketamiz. Buning oqibatlarini oldindan baholash juda qiyin. Prezidentimiz” Davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli 2015 yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik subyekti Internet tarmog‘i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro‘yxatga olingan. Ular 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. 2013-2014 yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga 102 mingdan ortiq xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2015 yilda bu ko‘rsatkich 420 mingdan oshdi. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda Internet tarmog‘i orqali taqdim etilmoqda.

Shu yilning 1 yanvaridan boshlab mamlakatimizning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili asosida Davlat xizmatlari

ko'rsatish yagona markazlari faoliyat boshladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi bo'yicha mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi. Unga ko'ra, ushbu tarmoqlar ishini yuritadigan tashkilotlarning hududiy banklariga texnik shartlarni olishdan tortib muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni amalga oshirib, ularni tadbirkorlarga tayyor holda topshirish vakolatlari berildi", deb ta'kidladi¹⁵.

2010 yilda Shvetsiya mamlakati qator reyting va hisobotlarda "AKT etakchisi" deya e'tirof etildi. Shved mutaxassisleri bunday muvaffaqiyat siri aholining AKT yo'nalishiga qiziquvchanligi hamda mamlakatda mustaqil tashabbuslar keng qo'llab-quvvatlanishi bilan bog'liqligini ta'kidlashadi. Mazkur mamlakat vakillarining AKT yo'nalishidagi yutuqlarini istagancha sanash mumkin. Masalan, 1993 yili kichikkina kompaniya sifatida tashkil topgan KlikTeckning bugungi kunda ishlab chiqarayotgan dasturiy mahsulotlaridan dunyoning 15000 dan ortiq yirik kompaniyalari foydalanib kelmoqda. Internet orqali bepul telefon aloqasidan foydalanish tizimi – mashhur Skype ham shved tadbirkorlari Niklas Zennstryom va Dane Yanus Friis tomonidan yaratilgan. Ular bu tizimni 2005 yili internet-auksion orqali 2,6 milliard dollarga sotishgandi. 2009 yili mustaqil dasturchi Markus Persson yangi kompyuter o'yini ishlab chiqib, internetga joyladi.

Biroq o'yin shunchalar mashhur bo'lib ketdiki, 2010 yilda uni 500 000dan ortiq geymer 10 evrodan sotib oldi. 31 yoshli Persson 5 000 000 evro egasiga aylandi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shuning uchun ham HP va Microsoft kabi gigant korporatsiyalar yangi g'oyalarga ega iqtidorli tadbirkorlarni qidirib topish uchun Shvetsiyaga o'z skautlarini tez-tez jo'natib turadi.

AKTning rivojlanish darajasiga ko'ra mamlakatlarni bir necha guruhga bo'lish mumkin:

- yuqori darajada rivojlangan ITP ga ega bo'lgan taraqqiy etgan mamlakatlar:

¹⁵ I.A.Karimov. Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2016 yil 17yanvar.

shu jumladan; a) AKTning tezkor rivojlanish davlat dasturlarini qabul qilganlari (Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Shvesiya, Finlyandiya, Fransiya); b) hozircha bu sohada maxsus davlat dasturlariga ega bo'lmaganlari (Germaniya, Norvegiya, Islandiya, Italiya, Avstraliya);

- o'rtacha darajadagi ITP ga ega mamlakatlar (Gresiya, Portugaliya, Sharqiy yevropa mamlakatlari);

- AKTni tezkor rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar qabul qilgan mamlakatlar (Hindiston, Rossiya, estoniya, Malayziya, Singapur, Meksika, Qozog'iston, Qirg'iziston);

- AKTni tezkor rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlarga ega bo'lmagan, o'rtacha darajadagi ITP ga ega mamlakatlar (ko'pchilik Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlari), O'zbekistonni ham shu guruhga kiritish mumkin;

- AKTni joriy qilish uchun mablag'i bo'lmagan juda past darajadagi ITP ga ega mamlakatlar, - Afrika mamlakatlari (JAR bundan mustasno), Osiyoning ayrim mamlakatlari (Afg'oniston).

Bugungi kunda G'arbiy yevropadagi AKT bozorlari eng faol rivojlanayotgan, Sharqiy Osiyo, Sharqiy yevropa va Janubiy Amerika bozorlari esa sust rivojlanayotgan bozorlar qatoriga kiradi. AQSh va Yaponiyaning AKT bozorlari mo'tadil sur'atlarda rivojlanayotgani ko'zga tashlanadi. Jahon AKT bozori bugungi kunda atigi ikki-uch yil avvalgidagiga nisbatan ancha murakkab tuzilish kasb etdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozori tarkibiga mikroelektronika, asbob-uskunalar va dasturiy ta'minotni ishlash va ishlab chiqarish, telekommunikatsiyalar, mobil servislar, Internetga kirish huquqini ta'minlash, Internet axborot resurslari va elektron biznes kiradi.

Evropa axborot texnologiyalari observatoriyasi (www.eito.com) mutaxassislarining e'tirof etishlaricha, butun AKT bozori telekommunikatsiyalar bozori va axborot texnologiyalari bozoriga bo'linadi

Telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi investitsiyalar yiliga 13% dan o'sib bormoqda. Bu asosan Sharqiy Osiyo, Sharqiy yevropa va Janubiy Amerika

kabi mintaqalar hisobiga sodir bo'lmogda. 1R-konvergensiya texnologiyalari, optik tarmoqlar, mobil aloqa infratuzilmalari va marshrutizatorlar investitsiyalarni qo'yishning eng dolzarb sohalari bo'lib kelmoqda.

AKT imkoniyatlaridan samarali foydalanish, nafaqat shu soha vakillari, balki har bir tadbirkor uchun tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. Albatta, bunda asosiy e'tibor tadbirkorlarning kundalik faoliyatlaridagi ehtiyojlarini qondirishda kompyuter imkoniyatlaridan unumli foydalanishga uchun AKT yo'nalishida o'ziga xos bilim talab etiladi. Yurtimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shayotgan kichik biznes vakillari va tadbirkorlarning AKT sohasida o'z bilim va malakalarini oshirib, mehnat faoliyatlarini yanada rivojlantirishlariga yordam berishi shubhasizdir.

3.2. Innovatsion boshqaruv jarayonida zamonaviy axborot - kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning davlat tomonidan qo'llab - quvvatlanishi

Bugun hech bir sohani axborot texnologiyalaridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti inson hayotini qulayliklar bilan boyitish imkonini beradigan "Elektron hukumat" tizimi joriy etilishiga turtki bo'ldi. "Elektron hukumat" tizimi jahon amaliyotida o'zining afzalliklarini namoyon etib ulgurgan. Mamlakatimizda ham keng miqyosda rivojlanib borayotgan mazkur tizim davlat hokimiyati organlari va biznes sohasi o'rtasida, ayniqsa, fuqarolarga turli davlat xizmatlarini interaktiv shaklda ko'rsatish imkonini taqdim etmoqda. O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi huzuridagi "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi jahondagi rivojlanish odimlari hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va tadqiq etish asosida "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan.

Bundan tashqari, markaz davlat organlarida foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi va axborot-resurslarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va mujassamlashtirish mexanizmini nazarda tutadigan "Elektron hukumat" tizimini shakllantirishga

yagona texnologik yondashuvni ta'minlashi, loyihalarini amalga oshirishni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy bazaning tashkil etilishiga yordam berishi zarur. Markazning muhim vazifalaridan yana biri davlat organlari faoliyatining funksional va amaliy jarayonlarini tizimli asosda qayta tashkil etish, davlat xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq biznes jarayonlarini boshqarishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish, takomillashtirish va optimallashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashdan iboratdir. Shuni ham ta'kidlash lozimki, markaz "Elektron hukumat" tizimining samarali joriy etilishi uchun amaldagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha tahlil va takliflarni tayyorlaydi. Shu bilan birga, tizimli monitoring o'tkazish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish holati va rivojlantirishga baho berish, jumladan, axborot tizimlari va resurslaridan foydalanish samaradorligini o'rganish, shuningdek, "Elektron hukumat" tizimi loyihalarini amalga oshirishda interaktiv davlat xizmatlarini taqdim etish va foydalanish samarali tayanch ko'rsatkichlari usullarini ishlab chiqish ham markazning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

"Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazida har biri o'z vazifasiga ega bo'lgan, bir necha bo'limdan iborat quyidagi ettita departament mavjud:

1. Strategik rejalashtirish va prognozlash departamenti.
2. Amaliy va funksional jarayonlarni optimallashtirish departamenti.
3. AKTni joriy etish holatini tahlil etish va baholash departamenti.
4. Elektron hukumat axborot tizimini rivojlantirish.
5. Elektron hukumat axborot-resurslarini rivojlantirish departamenti.
6. Mintaqalarda "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish departamenti.
7. Ixtisoslashgan tuzilmaviy bo'linmalar faoliyatlarini muvofiqlashtirish departamenti.

Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, markaz tuzilmasiga moliyaviy, halqaro, shuningdek, boshqa bo'lim ma'muriy xodimlari xizmatlari ham kiradi.

Sohaga oid qonunchilik-me'yoriy bazasi shakllantirildi va yanada takomillashtirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatda iqtisodiyotni rivojlanishi, boshqarish tizimini mukamallashtirish

axborotlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Halqaro tajriba shuni ko'rsatadiki davlat boshqaruvida AKTni qo'llash uning natijaviy samaradorligini, xususan axborotning o'zaro ta'siri, qayta ishlanishi va izlanishni amalga oshirish uchun vaqt qisqarishi hisobiga unumdorlini o'rtacha 20 foizga ko'paytirishga imkon yaratilmoqda .

Axborotlar boshqaruv jarayonida milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, sohalari, bo'linmalari (ish joyidan tortib vazirliklargacha) o'rtasida va ushbu kompaniya bilan o'xshash kompaniyalar va tashkilotlar o'rtasida uzluksiz axborot almashishdan iborat. Fan-texnika taraqqiyoti o'sishi bilan birga chiqarilayotgan tovarlarning nomenklaturasi ham ortadi, tez yangilanadi, ishlab chiqarishning texnika bazasi zamonaviy va murakkab mashinalar sistemasi bilan boyiydi, texnologik jarayonlar intensivlashadi va murakkablashadi, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish kengayadi va hokazo.

Ijtimoiy soha va iqtisodiyotning turli bo'g'inlarini boshqarish, rivojlantirish va samaradorligini orttirish maqsadida, sohaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish – bugungi zamon talabi bo'lgan dolzarb masaladir. Bunday sharoitda, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kuchli potensialidan nafaqat ijtimoiy yoki iqtisodiy sohalar, balki, siyosiy sohada ham foydalanish, uni davlat boshqaruvi, davlat va jamiyat munosabatlari hamda, fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatish kabi muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlar uchun qo'llash ayni muddao hisoblanadi. Davlat hokimiyati ichki tarmoqlari boshqaruvi (markaziy hukumat va mahalliy hokimiyatlar, davlat tashkilot va muassasalari o'rtasidagi o'zaro uzviylik) va davlat tashkilot va muassasalarining fuqarolar hamda biznesga ko'rsatadigan xizmatlarining samaradorligini oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining qulayliklari va imkoniyatlaridan foydalanish – zamonaviy ilg'or yo'nalishlardan biri bo'lib, halqaro leksikonda u «Elektron hukumat» (e-government) deb yuritiladi.

«Elektron hukumat» tushunchasi elektron hukumat tushunchasi dastavval XX asrning 90-yillari boshida AQShda paydo bo'lgan, ya'ni 1991 yilda, AQShning o'sha vaqtdagi prezidenti Bill Klinton davrida, internet va umuman axborot

kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlantirishga davlat darajasida, alohida e'tibor qaratgan paytda yuzaga kelgani ma'lum. Klinton ma'muriyati davrida davlat idoralari hujjatlari orqali OAVga tarqalgan «Elektron hukumat» tushunchasi, 1999 yildan boshlab, okean orti va Evropaning etakchi nashrlarida davriy ravishda va tez-tez uchray boshladi. Aynan shu davrda, «Elektron hukumat» va unga bog'liq tamoyillar tahlil va tadqiq qilingan ilmiy ishlar ham paydo bo'ldi. Keyingi davrda, axborot kommunikatsiya texnologiyalari borasida rivojlangan, etakchi davlatlar hukumatlarining maxsus qarorlari orqali amaliy ishga o'tildi. Davlat boshqaruvi sohasiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni ko'plab nufuzli halqaro tashkilotlar ham qo'llab quvvatlay boshlashdi. Ularning har birida, mazkur tushunchaning o'ziga xos talqinini ko'rish mumkin, masalan:

Elektron hukumat –fuqarolar, biznes va hukumatning turli tarmoqlari bilan munosabatlarni isloh qilishga qodir axborot texnologiyalarining Davlat organlari tomonidan qo'llanilishiga aytiladi. Bu texnologiyalar turli maqsadlarda xizmat qilishi mumkin. Fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatishning takomillashtirilishi ishlab chiqarish va biznes bilan o'zaro munosabatlarning yaxshilanishi va yanada samarali boshqaruvi. Elektron hukumat-axborot va kommunikatsiya texnologiyalarinin davlat boshqaruvi organlarida qo'llash bo'lib, o'z ichki va tashqi islohotlarni amalga oshirishda foydalanadigan hukumatdir.

Dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida «Elektron hukumat» tushunchasi jamoatchilik orasida munozaralarga sabab bo'layotganini ta'kidlash joiz. Xususan, «Elektron hukumat» so'zining ingliz tilidagi muqobili – «Electronic government» so'zi, u – davlat boshqaruvi organlarining o'z funksiyalarini amalga oshirishda elektron axborot kommunikatsiya vositalari potensialidan keng foydalanishini nazarda tutadi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyatida AKTning joriy etilishi holati va rivojlantirilishini tizimli monitoring qilish doirasida 123 ta ixtisoslashtirilgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tizimi bo'limlari hamda mahalliy hukumat organlarida davlat hokimiyati axborot faoliyatini joriy etish va rivojlantirish

holatini baholash o'tkazilib, unda axborot tizimlari va resurslarini joriy etish hamda AKTni joriy etish samaradorligini reytingli baholash tizimining tatbiq etilishi o'rganildi. Elektron hukumat arxitekturasini hamda axborot tizimlarini rivojlantirish va axborot tizimlari ekspertizasini o'tkazish yo'nalishi bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. Qo'shimcha qilib, bugungi kunda elektron hukumat tizimining samarali elementlari sifatida 20 dan ortiq loyihalar amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tish lozim. Davlat interaktiv xizmatlari yagona portali ishini takomillashtirish, unda ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar sonini oshirish borasida ham keng ko'lamli ishlar olib borilyapti.

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi mutaxassislari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vazirlik hamda idoralar bilan hamkorlikda davlat bojlari va boshqa yig'imlar onlayn-to'lov masalalari qayta ishlanmoqda. Kelgusida xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, elektron hukumat sohasida ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar o'tkazish, "elektron ta'lim", "elektron sog'liqni saqlash", "elektron soliq solish", "elektron bojxona" kabi axborot tizimlarini joriy etish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21 martdagi qaroriga muvofiq, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligini reytingli baholash tizimi tarkibi tasdiqlangan. "Elektron hukumat" tizimi doirasida davlat organlari faoliyatiga AKTni joriy etishning samaradorligini baholashning reyting tizimini yuritish ishlarini olib boradi. AKT joriy qilinishi va rivojlantirishning reytingli baholash tizimi davlat organi rasmiy veb-sayti, ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlari, idoraviy axborot tizimlari va resurslari, shuningdek davlat organida axborot xavfsiziligini ta'minlash yuzasidan muayyan talablarni qo'yadi. Xususan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytining mavjud qonunchilik asosida tashkil qilinishi, shuningdek, yagona portal orqali ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlari va aholi va tadbirkorlik

subektlari murojaatlariga munosabat ham baholash reytingida muhim ahamiyat kasb etadi.

2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi ijrosini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasining 2014 yil 27 martdagi 3-son bayoniga ko'ra quyidagilar tasdiqlangan:

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimiga kiritilgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek boshqa idoralar ro'yxati

- Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish holatini baholash metodikasi

- O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining 2014 yil 2 maydagi 158-son buyrug'iga muvofiq quyidagilar tasdiqlangan.

- Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-sayti holatini baholashning alohida ko'rsatkichlari ro'yxati .

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida joriy etish va rivojlantirishning holatini, shuningdek ITI.UZ milliy axborot tizimiga taqdim etiladigan axborotning sifati va ishonchliligini muntazam o'rganishni amalga oshirish maqsadida 2014 yil 23 aprelida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirishning holatini o'rganishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 102-son qarori imzolangan.

Mamlakatimizda aloqa va axborotlashtirish sohasini rivojlantirish, barcha sohalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jahon axborot makoniga integratsiyalashish borasida keng ko'lamli ishlar olib

borilmoqda. Prezidentimizning 2012-yil 21 martda qabul qilingan “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazkur yo‘nalishdagi ishlarni takomillashtirishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Axborotlashtirish sohasidagi islohotlarning olib borilishi natijasida respublikamizning barcha tarmoqlari va davlat boshqaruvi organlari oldiga qo‘yilgan vaziflardan kelib chiqib, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari (AKT) va telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va ularni hayotga keng joriy qilinishiga erishilmoqda. Jumladan, bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilgan ko‘p tarmoqli axborot industriyasini tashkil etish, AKTni iqtisodiyotning turli sohalarida keng joriy qilish orqali jamiyatimizning ichki mustahkamligi va ijtimoiy birligini tashkil etish, umumjahon hayot sifati standartlariga chiqish maqsadida 8ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 3ta farmoni, Prezident va hukumatimizning 17 ta qarori qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlariga asosan davlat axborot resurslarini qo‘shimcha ro‘yxati tasdiqlanib, yil boshida 51 ta davlat axborot resurslari va 8 ta davlat axborot tizmlari yaratildi hamda davlat organlarining 49 interaktiv xizmatlari turlari tasdiqlandi.

2015 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, ma’lumotlar uzatish, jumladan, internet tarmog‘iga ulash xizmatlarini ko‘rsatuvchi xo‘jalik subektlarining soni 930 taga etdi, jamoa bo‘lib foydalanish punktlari soni esa 1063 tani tashkil qildi. Halqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish umumiy tezligi 7780 Mbit/s.ga yetkazilib, o‘tgan yilga nisbatan 160,9 foizga o‘tdi. Buning natijasida operator va provayderlarga internet xizmatlari (tashqi kanal) uchun belgilangan tarif 2015 yil boshiga nisbatan o‘rtacha 25 foizga kamaytirildi. UZ zonasida qayd qilingan domenlar soni bugungi kunda 15,8 mingtadan ziyodni tashkil etdi. Hisobot davrida Davlat axborot resurslarining umumiy soni 195 taga yetkazildi. Interaktiv davlat xizmatlarining umumiy soni 197 tani tashkil qildi. Prezidentimiz bu borada alohida e’tibor qaratib, “Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi chora-tadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Biz o‘zimizga shuni aniq tasavvur etishimiz kerakki, iqtisodiyotning barcha sohalariga, kundalik hayotimizga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish bo‘yicha tub va ijobiy ma‘nodagi portlash effektini beradigan o‘zgarishlarni amalga oshirmasdan turib, istiqboldagi maqsadlarimizga erishish qiyin bo‘ladi.”¹⁶ -deb ta’kidladilar.

AKTni kelgusida yanada rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi vazifalar ham alohida ahamiyatga ega. Jumladan, mazkur muhim vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha soha kompaniyalari rahbarlariga tegishli chora-tadbirlarni belgilab olish va ijrosini ta’minlash yuzasidan quyidagilarni amalga oshirmoqdalar:

- “Elektron hukumat” tizimini, shu jumladan, boshqaruv jarayonlari, shuningdek, biznes sohasiga va fuqarolarga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini shakllantirish konsepsiyasi va kompleks dasturini ishlab chiqishni jadallashtirish;
- tadbirkorlar va aholiga interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatishning elektron shakllarini joriy qilish,
- milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishning 2013-2017 yillarga mo‘ljallangan kompleks Dasturini ishlab chiqish,
- zamonaviy texnologiyalar asosida videotelefonlar, internet-televidenie, yuqori tezlikdagi internet, HDTV kanallarini namoyish qilish va boshqa xizmatlar ko‘rsatish imkonini beradigan 2 ming kilometr uzunlikdagi keng polosali optik tolali aloqa tarmog‘i qurilishini yakuniga yetkazish,
- internet tarmog‘ida turli yo‘nalishlardagi zamonaviy milliy veb-resurslarni yaratish.

Kompaniyalarning ishlab chiqarish quvvatlari o‘shib, so‘nggi avlod texnika va texnologiyalari joriy etilyapti. Elektron hujjat aylanishi tizimi, elektron raqamli imzo, “ZiyoNET” tarmog‘ini kengaytirish, dasturiy mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan muayyan ishlar qilindi. Hozirgi paytda mamlakatimizda dasturiy mahsulot chiqaradigan 230 ga yaqin kompaniya va tashkilot ishlab turibdi,

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning “2015 yilda mamlakatimizni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlar”ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasini majlisidagi ma‘ruzasi 17.01.2016

264 nomda dasturiy mahsulot ro'yxatga olinib, ishlab chiqarilmoqda. Shu o'rinda mahalliy softver kompaniyalari uchun soliq to'lovlarida imtiyozlar joriy qilingani o'z natijasini ko'rsatganini ham e'tirof etib o'tish joiz.

Yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda, innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash hisobiga yangi zamonaviy xizmat turlarini joriy qilish, servis infratuzilmasini rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etish galdagi zarur vazifalar qatoriga kiradi.

Biznesni shakllantirishda internetning ta'sirini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Global tarmoq xizmatlar ko'rsatish sohasi keskin rivojlantirib yuborildi. Xizmatlar nafaqat real sharoitlarda, balki virtual olam orqali ham taqdim etilmoqda. Bu esa har qanday chegara va to'siqlarni olib tashladi, jahon bozorlari eshigini ochib berdi.

3.3. Axborot-kommunikatsiya tizimini innovatsion boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari

Davlat apparatini isloh qilish va tegishli jarayonlarni ishonchli normativ-huquqiy tartibga solishni ta'minlashning muhimligini inkor qilmagan holda biz baribir axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, tegishli infratuzilma va ushbu tizimlarda ishlash uchun professional tayyorlangan mutaxassisilarning mavjudligi boshqaruvni «elektronlashtirish» tizimlarini joriy etish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydigan asosiy shart ekanligini e'tirof etishimiz kerak. Boz ustiga, so'z nafaqat ushbu tizimlarni joriy etish haqida bormoqda. Ko'plab mamlakatlar tajribasi hozirgi dinamik rivojlanayotgan dunyoda AKT iqtisodiy rivojlanishning lokomotivi ekanligini, mamlakatga investitsiyalar jalb etilishiga, yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga, ilg'or texnologiyalar ishlab chiqarishga va boshqaruvga tatbiq etilishiga, axborot ayirboshlashda chiqimlar qisqartirilishiga, bozor qatnashchilari o'rtasida bitishuvlar sodir etilishiga ko'maklashishini ko'rsatadi. Mana shuning uchun ham O'zbekiston Hukumati mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvorligi sifatida axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari joriy etilishini ajratib ko'rsatadi. Prezident I.A.Karimov "Bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga egadir.

Ko'pgina shaxsiy kompyuterlar uchun integrallashtirilgan va ixtisoslashtirilgan dastur paketlari turli funksiyalarga «menyu» (imkoniyatlar ro'yxatlari va tanlash parametrlari) orqali kirishni ta'minlaydi. Telekonferentsiyalarning ikki alohida turi – kompyuterlashgan telekonferentsiyalar va videokonferentsiyalarga ajraladi. Videokonferentsiyalar jismoniy jihatdan turli joylarda bo'lgan ishtirokchilarga bir-birini ko'rish va eshitish imkonini beradiki, bu hol xuddi bir joyda mavjud bo'lish tasavvurini uyg'otadi. Shaxsiy kompyuterlardan keng foydalanish kompyuterlashgan telekonferentsiyalarning o'sishiga olib keladi.

Lokal tarmoq hamkasblarning terminallariga, muassasalardagi ixtisoslashgan ma'lumotlar bazasiga va markazlashgan xizmatlarga (asosiy kompyuterlar, axborot fayllarga) kirish imkonini beradi. Lokal tarmoq idora kommunikatsiyasini ta'minlaydi va katta axborot oqimlarini uzatishga qobil.

Zamonaviy, ma'lum ma'noda, ideal idora boshqaruv mutaxassislari va idoraning boshqa xodimlari mehnatini kompleks avtomatlashtirishni ta'minlashlari lozim.

AQSh boshqaruv organlarida bunday ofislarda ish hajmining 37% bajariladi va unga sarflanayotgan vaqtni esa 24% ga kamaytirdi. «Elektron ofis» konsepsiyasini amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish sekin-asta boshqarish usul va metodlarini o'zgartirishga, bir qator xodimlar vazifalarini qayta ko'rib chiqishga, mehnat samaradorligini oshirishga olib kelmoqda.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmashimiz zarur.

Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning taxminan 5,5 foizi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga to'g'ri kelmoqda. Nufuzli xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, 2020 yilda bu ko'rsatkich 9 foizdan oshadi”, -deb alohida takidladi.¹⁷

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi PF-3080-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-son qarori ushbu vazifani amalda ro'yobga chiqarishga yo'naltirildi. Ularda axborot jamiyatini rivojlantirishning strategik ustuvorliklari belgilandi, 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi qabul qilindi va hozirda amalga oshirilmoqda. Ushbu keng ko'lamli ishlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- telekommunikatsiyalar infratuzilmasini va Internet tarmog'ining milliy segmentini rivojlantirish;
- aholini kompyuter texnikasi va tegishli tarmoq resurslari bilan jihozlash bo'yicha rivojlangan mamlakatlar darajasida mavjud qoloqlikni bartaraf etish;
- dasturiy ta'minotning milliy industriyasini barpo etish;
- mamlakatning yagona axborot makonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan milliy resurslarni shakllantirish;
- yuqori malakali kadrlar salohiyatini tayyorlash;
- AKT sohasida raqobat muhitini rivojlantirish;
- AKTni va tegishli texnik vositalarni standartlashtirish va sertifikatsiyalashni rivojlantirish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash;

¹⁷ I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.Xalq so'zi, 17 yanvar 2016 y.

- tegishli investitsiya va innovatsiya loyihalari ustuvor moliyalashtirilishi va kredit berilishini ta'minlash.

Shunday qilib, biz tomonimizdan urinib ko'rilgan sharhdan ko'rinib turganidek, O'zbekistonda davlat boshqaruvida AKT loyihalari va tizimlarini joriy etish uchun barcha zarur shart-sharoitlar faol va maqsadga yo'naltirilgan tarzda shakllantirilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya bozorini shakllantirish va bozor infrotuzilmalarini rivojlantirish borasida quyidagi nazariy tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiqdir:

- informatikaning texnik bazasi va dasturiy ta'minotini shakllantirishda jahon tajribasidan keng ko'lamda va samarali foydalanish;

- mamlakatimiz bozor iqtisodiyotining o'ziga xos shart- sharoitlaridan kelib chiqib axborot-kommunikatsiyalar biznesi tizimini barpo etishning jahon miqyosida mavjud namunaviy turlariga intilish.

Mamlakatimizda hozirgi zamon talablariga muvofiq, yuqori malakali, har tomonlama bilimli, aql-zakovatli, yuksak manaviyatli mutaxassislar tayyorlashga katta etibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'limni axborotlashtirish va axborot texnologiyalardan foydalanish masalalariga keng o'rin berilgan. Kompaniyalar boshqaruv jarayonida yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etishga katta ahamiyat berib, zamonaviy dasturlarni va texnik jihatdan yangilash jarayonlariga mablag'larni investitsiya qilmoqda. Kompaniyaning rivojlanishi uchun qilingan investitsiyalar miqdori yildan-yilga oshib, bu o'z o'rnida kompaniyaning xizmat turlarini kengayishiga, kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga hamda mijozlarga sifatli va tezkor xizmat ko'rsatish imkonini bermoqda.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

- Global jamiyatda sifatli va tezkor etkazib beriladigan axborot mahsulotlariga bo'lgan talab doimo o'sib bormoqda. Hamma boshqarish obektlari ham katta hajmdagi axborot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash imkoniyatiga

ega emas. Shuning uchun ham axborot mahsulotlari va xizmatlarining mamlakatimizda keng tarqalishi uning axborot-texnologik bazasi, aloqa tizimi va malumotlarni uzatish vositalari, axborot mahsulotlarini ishlab chiqishning tovar-xo'jalik, ishlab chiqarish iqtisodiy sharoitlarining yaxshilanishi bilan bog'liq.

- Bugun hech bir sohani axborot texnologiyalaridan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti inson hayotini qulayliklar bilan boyitish imkonini beradigan "Elektron hukumat" tizimi joriy etilishiga turtki bo'ldi.

- Elektron hukumat –fuqarolar, biznes va hukumatning turli tarmoqlari bilan munosabatlarni isloh qilishga qodir axborot texnologiyalarining Davlat organlari tomonidan qo'llanilishiga aytiladi. Bu texnologiyalar turli maqsadlarda xizmat qilishi mumkin.

- Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi mutaxassislari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vazirlik hamda idoralar bilan hamkorlikda davlat bojlari va boshqa yig'imlar onlayn-to'lov masalalari qayta ishlanmoqda.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishi ustida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagicha xulosalar qilindi:

- Axborot - bu ma'lumot va xabarlar to'plami bo'lib, mazmunan yangilik unsurlariga ega bo'ladi va boshqaruv vazifalarini hal etish uchun o'ta zarurdir.

- Agar kompaniya ichida axborot oqimlarining kelishi va tashqi dunyo bilan aloqalar buzilsa, kompaniyaning yashashi xavf ostida qoladi.

- Axborot tizimlari ikki xil bo'lishi mumkin. Oddiy tizimda axborot paydo bo'lgan joyidan iste'mol joyiga keltiriladi. Bunday axborot telefon orqali yoki signallar vositasida kelib tushishi mumkin. Bu turdagi axborot tizimi quyi boshqaruv bosqichiga to'g'ri keladi. Bunday axborotga deyarli ishlov berilmaydi. Murakkab tizim boshqaruv tarkibining murakkabligi bilan bog'liq. Bu erda dastlabki axborot yuzaga keladi. Ishlov berishda hisoblash texnikasidan keng foydalaniladi.

- Kommunikatsiya – bu kishilar o'rtasidagi o'zaro axborot almashuvidir. Rahbarlar qilayotgan hamma ishlar axborotlarning samarali almashishini talab qiladi. Yaxshi yo'lga qo'yilgan kommunikatsiya ish muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

- Innovatsiyalar (yangiliklarni joriy etish) - menejmentning asosiy muammolaridan biri. Fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning yuqori sur'atlari faqat boshqaruvning ilmiy-texnik revolyutsiya natijalarini tezlik bilan va samarali o'zlashtirishga layoqatli tizimlarining amal qilishiga imkon yaratdi.

- “Innovatsiya” “yangilikning joriy etilishi” bilan sinonim emas, balki yangi bilimlar, yondashuvlar ko'rinishidagi yangiliklarning joriy etilishi jarayoni bilan bog'liq hodisadir.

- Ipoteka-Bank missiyasi – o'z aksiyadorlari va bank mijozlari uchun eng yuqori darajadagi iqtisodiy qadriyatlarni yaratishdan iborat. Mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori sifati va tanlangan bozorlardagi etakchilik, kelajakdagi bank muvaffaqiyati uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

- Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bank mablag'i hisobiga ko'p qavatli uy-joylarni qurish hamda ushbu uylarni aholiga kreditga berish tizimi ilk bor

bizning bankda yaratilib, buning natijasida uy-joy bozorida xalq tili bilan aytganda, “bank qurgan uylar” iborasi paydo bo‘lgan.

- Bank o‘z strategiyasiga tayangan holda erishayotgan ijobiy ishlari hamda yutuqlarini uning faoliyatiga baho berayotgan reyting kompaniyalari xulosalarida ham ko‘rish mumkin. Ushbu hulosalarni Moody’s va Standard & Poor’s xalqaro reyting kompaniyalari tasdiqlab bankka istiqboli “Barqaror” reytingini berganlar.

- Global jamiyatda sifatli va tezkor yetkazib beriladigan axborot mahsulotlariga bo‘lgan talab doimo o‘sib bormoqda. Hamma boshqarish obektlari ham katta hajmdagi axborot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash imkoniyatiga ega emas.

- Xorij amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, agar biz axborot resurslariga bo‘lgan munosabatlarimizni tubdan o‘zgartirmasak, AQSh va Yaponiya mamlakatlaridan yanada ortda qolib ketamiz. Buning oqibatlarini oldindan baholash juda qiyin.

- Bugun hech bir sohani axborot texnologiyalaridan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti inson hayotini qulayliklar bilan boyitish imkonini beradigan "Elektron hukumat" tizimi joriy etilishiga turtki bo‘ldi.

- Mamlakatda iqtisodiyotni rivojlanishi, boshqarish tizimini mukamallashtirish axborotlarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Halqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki davlat boshqaruvida AKTni qo‘llash uning natijaviy samaradorligini, xususan axborotning o‘zaro ta’siri, qayta ishlanishi va izlanishni amalga oshirish uchun vaqt qisqarishi hisobiga unumdorlini o‘rtacha 20 foizga ko‘paytirishga imkon yaratilmoqda .

- Ijtimoiy soha va iqtisodiyotning turli bo‘g‘inlarini boshqarish, rivojlantirish va samaradorligini orttirish maqsadida, sohaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish – bugungi zamon talabi bo‘lgan dolzarb masaladir.

- Bunday sharoitda, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kuchli potensialidan nafaqat ijtimoiy yoki iqtisodiy sohalar, balki, siyosiy sohada ham foydalanish, uni davlat boshqaruvi, davlat va jamiyat munosabatlari hamda,

fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatish kabi muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlar uchun qo'llash ayni muddao hisoblanadi.

- Kompaniyalarning ishlab chiqarish quvvatlari o'sib, so'nggi avlod texnika va texnologiyalari joriy etilyapti. Elektron hujjat aylanishi tizimi, elektron raqamli imzo, "ZiyoNET" tarmog'ini kengaytirish, dasturiy mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan muayyan ishlar qilindi.

- Yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda, innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash hisobiga yangi zamonaviy xizmat turlarini joriy qilish, servis infratuzilmasini rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etish galdagi zarur vazifalar qatoriga kiradi.

- Biznesni shakllantirishda internetning ta'sirini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Global tarmoq xizmatlar ko'rsatish sohasi keskin rivojlantirib yuborildi. Xizmatlar nafaqat real sharoitlarda, balki virtual olam orqali ham taqdim etilmoqda. Bu esa har qanday chegara va to'siqlarni olib tashladi, jahon bozorlari eshigini ochib berdi.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmashimiz zarur.

- Kompaniyalar boshqaruv jarayonida yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etishga katta ahamiyat berib, zamonaviy dasturlarni va texnik jihatdan yangilash jarayonlariga mablag'larni investitsiya qilmoqda. Kompaniyaning rivojlanishi uchun qilingan investitsiyalar miqdori yildan-yilga oshib, bu o'z o'rnida kompaniyaning xizmat turlarini kengayishiga, kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga hamda mijozlarga sifatli va tezkor xizmat ko'rsatish imkonini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezident asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
1. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tug'risida»gi qonun. - T.: O'zbekiston, 1995.
2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati tug'risida»gi qonun. - T.: O'zbekiston, 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish tug'risida»gi qonuni. – T.: O'zbekiston, 2003.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 y. PQ-1438 –son «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi qarori. // Xalq so'zi, 2010 yil 27 noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.04.2010 y. PQ-1325-son «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori // Xalq so'zi, 2010 yil 20 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor kompaniyalarni tijorat banklariga sotish tartibni tasdiqlash to'g'risida. 2008 yil 19 noyabr, F-4010-son.

9. O‘zbekiston Respublikasida Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 15 aprelda 1122-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida NIZOM”.

10. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 12 avgustdagi “Tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. (2007 yildagi o‘zg.tahririda).

11. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Kongsitutttsiyasi qabul qilingani-ning 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi Prezident Islom Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish –taraqqiyotimizning muhim omilidir” ma’ruzasi. Xalq so‘zi, 07.12.2010

12. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” – 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2011 yil 22 yanvar.

13. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” ma’ruzasi// Xalq so‘zi gazetasi, 12.11.2010.

14. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 24 b.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2015-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2016 yil, 17-yanvar.

II.Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

1. Супян В.Б. Американская экономика – человек, технический прогресс и предпринимательство. Под ред.. – М.: Наука, 2011. – 239 с.

2. Бляхман Л.С. Экономика, организация управления и планирование научно-технического прогресса: Учеб. пособие для экон. спец. вузов. – М.: Высшая школа, 2003. – 221 с.
3. Бешелев С.Д., Гурвич Ф.Г. Нововведения и ми. – М.: Наука, 2009. – 296 с.
4. Бляхман Л.С. Экономика, организация управления и планирование научно-технического прогресса: Учеб. пособие для экон. спец. вузов. – М.: Высшая школа, 2003. – 221 с.
5. Гвишиани Д.М., Громека В.И. Теоретические аспекты исследований инновационного процесса и формирования инновационной политики / Инновационная политика развитых капиталистических государств. – М.: 2000.
6. Зайцев М.Г. Варюхин С.Е. Методы оптимизации управления и принятия решений: примеры, задачи, кейсы: учеб. пособие -2-е изд.. испр. - М.: “Дело” АНХ, 2008. -664 с.
7. Иваненко А.Г. Инновационный менеджмент: учеб. пособие. – М.: КНОРУС, 2009. -416 с.
8. Горфинкеля В.Я., Чернишева Б.Н. Инновационный менеджмент: Учебник. / Под ред. -2-е изд. – М.: Вузовский учебник, 2008. -464 с.
9. Лапин Н.И. Актуальные проблемы исследования нововведений // Социальные факторы нововведений в организационных системах. – М.: 2005. – С. 150.
10. Иванов М.М., Колупаева Г.Б. США: управление наукой и нововведениями /, – С.Р. Кочетков; Отв. ред. Л.И. Евенко, Г.Б. Кочетков; АН СССР, Ин-т США и Канады- М.: Наука, 2001. – 214 с.
11. Yo‘ldoshev N.Q. Innovatsion menejment. Darslik. -Т.: TDIU, 2013.
12. Коноплева И.А., Хохлова О.А., Денисов А.В., Информационная технология: учеб пособие. под ред. И.А.Коноплевой. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2007, - С.7
13. Коротеев А.С. Нововведения в промышленности США: разработка и внедрение. Научно-аналитический обзор. М.: 2003.

14. Круглов М.Г. Инновационный проект управления качеством и эффективностью: Учеб. пособие. -М.: “Дело” АНХ, 2009. -336 с.
15. Krkosa L. FDI financing of capital formation in Central and Eastern Europe, London. EBRD working paper number 67, 2001.
16. Орехов В.Н., Балдин К.В., Орехова Т.Р. Антикризисное управление: Учеб. пособие. -2-е изд. испр. -М.: ИНФРА-М, 2009. -504 с.
17. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями: Сокр. пер. с англ. / К.Ф. Пузиня. – М.: Экономика, 2001.
18. Титоренко А. Автоматизированные информационные технологии в экономике: Учебник. - М.: ЮНИТИ, 2006, - С. 43
19. Турсунходжаев М.Л., Сагдуллаев М.Т. Инновационный менеджмент. Под. общ. ред. Зайнутдинова Ш.Н. -Т.: ТГЕУ, 2001.
20. G'ulomov S.S., Begalov A. Informatika va axborot texnologiyalari”. T:Fan, 2010.112 bet
21. Юлдашев Н.К., Юсупов У.Ш. Управление инновациями. Учебное пособие .Т., ТГЕУ, 2013г. -180с.

III. Interet saytlari

1. [“Ipoteka bank” yillik hisobotlari. 2012-2015 y.](#)
2. www.bankir.uz – Bankir.uz bank faoliyatiga oid axborot-resurslar sayti.
3. www.bankir.ru – Bankir.Ru axborot agentligi sayti.
4. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.
5. www.bfa.uz – O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi sayti.
6. <http://www.edu.hsb.uz> – Korporativ boshqaruv sayti.